

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

Qo'lyozma huquqida  
UDK: 330.131.7

**BEKTEMIROV ABDUXAMID ABDUMALIKOVICH**

**TADBIRKORLIK RISKLARINI BAHOLASH VA PASAYTIRISH  
YO'LLARI (XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI MISOLIDA)**

**Ixtisoslik: 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: I.A.Mamatqulov**  
iqtisodiyot fanlari doktori

**Samarqand – 2023**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>		3
<b>I BOB</b>	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA TADBIRKORLIK RISKLARINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	13
1.1.	Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik risklarining mohiyati va ahamiyati.....	13
1.2.	Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik risklarining tavsifi va uni tasniflash.....	20
1.3.	Xizmat ko'rsatish korxonalarida tadbirkorlik risklarini baholashning metodologik asoslari.....	26
<b>I BOB BO'YICHA XULOSA.....</b>		40
<b>II BOB</b>	<b>XIZMATLAR SOHASI VA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR TAHLILI.....</b>	41
2.1.	Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi va tadbirkorlik faoliyati tahlili.....	41
2.2.	Xizmat ko'rsatish subyektlarida risklarni vujudga keltiradigan omillarni tahlil qilish va baholash .....	52
2.3.	Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion tadbirkorlik holati va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	60
<b>II BOB BO'YICHA XULOSA.....</b>		71
<b>III BOB</b>	<b>XIZMAT KO'RSATISH SUBYEKTLARIDA RISKLARNI BAHOLASH VA PASAYTIRISH ORQALI FAOLIYAT SAMARDORLIGINI TA'MINLASH.....</b>	73
3.1.	Xizmat ko'rsatish subyektlariga ta'sir ko'rsatadigan risklarni baholash .....	74
3.2.	Tadbirkorlikda investitsiya loyihalarini baholash va xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajasini aniqlash .....	88
3.3.	Xizmat ko'rsatish subyektlarida iqtisodiy risklarni baholash va prognozlash .....	96
<b>III BOB BO'YICHA XULOSA.....</b>		102
<b>XULOSA.....</b>		104
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>		106
<b>ILOVALAR.....</b>		117

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi tobora rivojlanib, birinchi darajali sektorga aylanib bormoqda. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi kuchli 20 talikka kirmaydigan mamlakatlarda aholining kamida 50 foizi bandligini, rivojlangan mamlakatlarda esa aholining 80-85 foizi bandligini tashkil etmoda<sup>1</sup>. Bugungi kunda jahon yalpi mahsulotining o'rtacha 65 foizi<sup>2</sup> xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Dunyo miqyosida xizmat ko'rsatish sohasining tobora rivojlanib borayotganligi, bu - insonlarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, qaysi mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlansa, bu birinchi galda, o'sha mamlakat aholisining turmush darajasini sifat jihatidan ko'tarilishiga va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, globallashtiruv sharoitida mamlakatlarning barqaror taraqqiy etishi, milliy iqtisodiyotlardagi tarmoqlarning jadal rivojlanishi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi uchun, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga turli darajada ta'sir etuvchi hamda o'sish sur'atining sekinlashishiga olib keluvchi holatlarni tahlil qilish va zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Negaki, so'ngi o'n besh yilda jahon miqyosida kuzatilayotgan xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, global pandemiya (Covid-19), davlatlar o'rtasidagi harbiy-siyosiy ziddiyatlar va boshqa shu kabi hodisalar barcha milliy iqtisodiyotlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yo'qotish xavfi mavjud bo'lgan bunday holat riskni yuzaga keltiruvchi omillarni chuqur tahlil etish, uning darajasini baholash va pasaytirish bo'yicha zaruriy choralarni amalga oshirish hamda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda milliy taraqqiyotni ta'minlash jarayonida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalari qatorida xizmat ko'rsatish sohasini

---

<sup>1</sup><https://uzlidep.uz/positionparty/456>

<sup>2</sup><https://www.statista.com>

ham jadal rivojlantirish, sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ijobiy ishlar amal oshirib kelinmoqda. Xususan, «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish, xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishi xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatida yuzaga keladigan risklar darajasini baholash hamda uni pasaytirish bo'yicha zaruriy choralarni amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi va 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida»gi Farmonlari hamda 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son «Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son «Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasi va tadbirkorlik faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotda tutgan o'rnini, uning mohiyati va ahamiyati, tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklar va ularning turlari, risklarni baholash va pasaytirish yo'llari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari A.Smit, L.Valras, A.Marshall, A.Pigu, K.Marks, Y.Shumpeter, J.Keyns, G.Mulen, F.Nayt, F.Kotler, V.Shiray, I.Aleshina, R.Nureyev I.Kiselova, S.Vasin, A.Samoxvalova, G.Axtamova, A.Romanova, L.Zirchenko, O.Firsova, I.Sokolova, B.Rayzberig, N.Radayev, T.Gurnovich<sup>3</sup> kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ham xizmat ko'rsatish sohasi va uni rivojlantirishning nazariy-uslubiy muammolari, xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligini oshirish hamda risklarni boshqarishga oid masalalar Y.Abdullayev, Q.Abdurahmonov, M.Muxammedov, M.Pardayev, J.Qurbonov, I.Tuxliyev, K.O'razov, B.Abdukarimov, Q.Mirzayev, Sh.Mustafaqulov, X.Mamatqulov, A.Saidov, I.Ochilov<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

---

<sup>3</sup>Адам Смит «Исследование о природе и причинах богатства народов» (Smith Adam An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. Vol. 4, Ch. 2,3)-125с; Вальрас Л., Паретто В. «Элементы чистой политической экономики» (Elements d'économie politique pure, 1874); Альфред Маршалл. «Принципы экономической науки». 543 с.; Pigou Arthur Cecil, International Encyclopedia of the Social Sciences, vol. 12, ed. D. L. Sills (Macmillan Free Press, 1968); D. Collard, A C. Kougou, 1877-1959, Pioneers of Modern Economics in Britain, D. P. O'Brien and J.R. Presley (eds.) (Macmillan, 1981); Маркс К., Капитал. // Маркс К., Энгельс Ф. Соч. – 2-е изд. – М.: Т. 23. – 908 с.; Шумпетер Й. А. «Теория экономического развития». М.: Прогресс, 1982.– 455 с.; Дж.М.Кейнс. «Общая теория занятости, процента и денег. Избранное» М.: Эксмо, 80 с.; Мулен Г. «Теория игр с примерами из математической экономики». М.: Мир, 1985.; Найт Ф.Х. «Риск, неопределенность и прибыль». М.: Дело, 2003.; Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент. Экспресс-курс. 2-е изд. / пер. С англ.; под ред. С.Божук. – СПб.: Питер. 2005. – С.301; Ширай В. Мировая экономика и международные отношения: учебное пособие. – М.: С. 226.; Алешина И. В. Маркетинг для менеджеров: Учеб. Пособие / М.: ФАИР-ПРЕСС, 2003. – С. 446.; Р.Нуреев. Экономика развития: модели становления рыночной экономики. – М.: 2002. С. 25.; Киселева И.А., Симонович Н.Е. Оценка рисков в бизнесе: предпринимательские риски // Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2017, т.10, вып.3., стр. 244-257.; Васин С.М., Шутов В.С. Управление рисками на предприятии учебник. М.: КНОРУС, 2007.; Самохвалова А.Р. Управление предпринимательскими рисками. Автореферат диссертации на соискание к.э.н., Москва - 2004.; Ахтамова Г.А. Управление предпринимательскими рисками в сфере услуг. Автореферат диссертации на соискание к.э.н., Москва -2004.; Романова А.Т., Смолякова Е.В. Управление рисками в международных транспортных системах. Учебное пособие.- М.: РУТ (МИИТ), 2019. – 133 с.; Зирченко Л.А. Совершенствование систем управления рисками в процессе развития предпринимательских структур. Диссертация на соискание ученой степени к.э.н., Санкт-Петербург – 2019.; Фирсова О.А. Управление рисками организаций. Учебное пособие Орел: МАБИВ, 2014.-100с.; Соколова И.А. Управление предпринимательскими рисками на предприятиях сферы услуг. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н., Тольятти-2005.; Райзберг Б.А. Азбука предпринимательства. М.: Дума, 1991. - 64 с.; Акимов В.А., Воронов С.П., Радаев Н.Н. Концепции риска и концепции анализа риска // Стратегия гражданской защиты: проблемы и исследования. 2013. Вып. № 2. Т. 3. С. 562-567.; Гурнович Т.Г. и другие. Учебник. Оценка и анализ риска. М.: Кнорус, 2019, 252с.

<sup>4</sup>Y.A.Abdullayev. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: - Mehnat. 2002 y. 297 b.; M.M.Muxammedov, Y.P.O'rinbayeva Mehnat resurslari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot. S.: «Servis». 2013 y. № 1. 27 b.; M.Q.Pardayev, I.S.Ochilov. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Monografiya, T.: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y. – 11 b.; J.Qurbonov «Xizmat, xizmat ko'rsatish, servis». S.: «Servis».- 2009 y. № 1, 56 b.;

Ammo, tadbirkorlik subyektlarida xususan, xizmat ko'rsatish korxonalarida yuzaga keladigan risklarni mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baholash hamda pasaytirish yo'llarini aniqlash bo'yicha yaxlit ilmiy izlanishlarning yetarlicha olib borilmaganligi mazkur dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilash uchun asos bo'ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tadbirkorlik subyektlarida risklarni baholash asosida uning ta'sir darajasini pasaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

iqtisodiy adabiyotlarni tahliliy o'rganish orqali «risk» va «tavakkalchilik» tushunchalarining mohiyatiga aniqlik kiritish;

risklarning tarkibi, ularni vujudga keltiruvchi omillar va shart-sharoitlarini tizimlashtirish va tasniflash;

risklarni yuzaga kelishida omillarning ta'sirini, shuningdek, risklarning ta'sir darajasini aniqlashning ekspert-baholash usulini asoslab berish;

---

I.Tuxliyev. Xizmat ko'rsatish sohasida axborot-texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlari // «Servis». – Samarqand. – 2011. - № 1.; K.B.Urazov va boshqalar. Xizmat ko'rsatish va servis korxonalarida buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari. // Servis. – Samarqand. 2009 y. -№ 1. 107 b.; B.Abdukarimov va boshqalar. Xizmatlar va servis sohasining mohiyati, samaradorligini oshirish hamda faoliyatini takomillashtirishni ilmiy-nazariy va amaliy masalalari. «Xizmat ko'rsatish va servis sohasi: muammolari va rivojlanish istiqbollari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. S.: 2010 y. 6-10 aprel. 25 b.; Q.Mirzayev «Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik asoslari» iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi. – S.: 2012 y. 24-25 b.; Sh.I.Mustafaqulov «Investitsion muhit jozibadorligi». ilmiy-amaliy qo'llanma. - Bank-moliya akademiyasi. – O'zbekistondagi BMT TD vakolatxonasi. – Toshkent. – 2017 y. – 304 b.; X.Mamatqulov. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. – 340 b.; A.Saidov. «Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish yo'llari» iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – S.: 2011 y. 10 b.; I.Ochilov. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi.// Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. 37 b.

milliy iqtisodiyotimizda tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohasining holatini tahlil qilish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlik holatini tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy risklarni baholash va risk darajasini pasaytirishni prognozlash usulini asoslash;

tadbirkorlikda investitsiya loyihalarini baholash va amalga oshirishda rejalashtirish jarayonini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan xizmat ko'rsatish subyektlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya va diversifikatsiya ishlarini jadal davom ettirish sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuzaga keladigan risklarni baholash hamda ularning ta'sir darajasini pasaytirish uslubiyatini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, ekonometrik modellashtirish, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, ekspert baholash, ijtimoiy so'rovnoma, prognozlash usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "risk" kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning raqobat sharoitida biznes jarayonlari ishtirokchilarining faoliyat natijalarini aniq bashorat qilish imkonini bermaydigan, ayni paytda biznesning rivojlanishini rag'batlantiradigan hodisa hamda tavakkalchilik – riskli harakat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish korxonalarini ishchi-xodimlarining fors-major sharoitlarida ish vaqtinini yo'qotish riski ta'sirida mehnat unumdorligi darajasi pasayishining me'yoriy chegaralari ( $0,2 \leq U_{mu} \leq 0,5$ ) diapazoni aniqlangan;

xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsion loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarini riskka moyillik darajalari

(1-guruh:  $R_m = 0 - 30\%$ ; 2-guruh:  $R_m = 31\% - 55\%$ ; 3-guruh:  $R_m = 56\% - 100\%$ )  
guruhlarga ajratilgan;

Samarqand viloyatidagi xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish orqali ulardagi iqtisodiy risklarni pasaytirishning 2025 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xorijiy davlatlarda va mamlakatimizda ko'rsatiladigan xizmatlarni tadqiq qilish natijasida innovatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

risklarning tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelish omillarini o'rganish orqali ularning turlariga aniqlik kiritilgan va yangi tarkibiy tuzilmasi taklif qilingan;

xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni baholash uslublarini tahlil qilish orqali progressiv usullardan foydalanilgan;

xizmat ko'rsatish korxonalarida risklar darajasini pasaytirish orqali faoliyat samardorligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning belgilangan maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan so'rovlarni maxsus talablar asosida olib borilganligi, keltirilgan xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalardan foydalanish mumkinligi, xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni baholash va pasaytirish usullarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilganligi, xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyat samardorligini ta'minlashda risklarni baholash va boshqarish mexanizmini takomillashtirish, sohadagi xo'jalik subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq ilmiy xulosalardan ushbu yo'nalishlardagi tadqiqotlarda nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Amaliy ahamiyati ulardan respublikadagi xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarida vujudga keladigan risklarni



baholash va pasaytirish orqali, ularning faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda va kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida, jumladan, «Kichik biznes va tadbirkorlik», «Investitsiya va innovatsiyalar», «Moliyaviy menejment», «Antiinqiroziy boshqaruv», «Iqtisodiy xavfsizlik», «Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish» kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlar (darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar), xizmat ko'rsatish korxonalarida tadbirkorlik faoliyati muammolari bo'yicha maxsus kurslar va metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadbirkorlik subyektlarida risklarni baholash va pasaytirish uslubiyatini takomillashtirishga oid ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "risk" kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning raqobat sharoitida biznes jarayonlari ishtirokchilarining faoliyat natijalarini aniq bashorat qilish imkonini bermaydigan, ayni paytda biznesning rivojlanishini rag'batlantiradigan hodisa hamda tavakkalchilik – riskli harakat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar, 60410600 – Sug'urta ishi, 70410402 – Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun nashr etilgan «Investitsiya va innovatsiyalar» o'quv qo'llanmasiga kiritilgan va o'quv jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug'i). Mazkur taklifning joriy etilishi «Investitsiya va innovatsiyalar» fani mazmunini takomillashtirishga va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarining fors-major sharoitlarida ish vaqtinini yo'qotish riski ta'sirida mehnat unumdorligi darajasi pasayishining me'yoriy chegaralari ( $0,2 \leq U_{mu} \leq 0,5$ ) diapazoni ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni

rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari» kotibiyati hamda O'zbekiston Respublikasi «Turonbank» aksiyadorlik tijorat bankining Risk departamenti tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tahlil qilish va samaradorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-yanvardagi 02/1-3214-sonli va O'zbekiston Respublikasi «Turonbank» ATB boshqaruvining 2023-yil 13-fevraldagi 16/02-22-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning tadbiq etilishi xizmat ko'rsatish korxonalarining yillik ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmining 8,3 % o'sishiga olib kelgan;

xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsion loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalari bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar (1-guruh (kuchsiz):  $R_m = 0 - 30\%$ ; 2-guruh (o'rtacha):  $R_m = 31\% - 55\%$ ; 3-guruh (kuchli):  $R_m = 56\% - 100\%$ ) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida»gi PF-101-son Farmonida belgilab berilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari» kotibiyati hamda O'zbekiston Respublikasi «Turonbank» aksiyadorlik tijorat bankining Risk departamenti tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi yakuniy variantining «Iqtisodiyotga kapital quyilmalarni keng jalb qilish va samaradorligini ta'minlash» bobida sohaga jalb etilayotgan investitsion loyihalar, ularning sifatini baholash va amalga oshirish samaradorligini ta'minlash yo'llarini belgilashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-yanvardagi 02/1-3214-sonli va O'zbekiston Respublikasi «Turonbank» ATB boshqaruvining 2023-yil 13-fevraldagi 16/02-22-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur

taklifning joriy etilishi investitsion loyihalarni baholash sifatini oshirishga olib kelgan va investitsion resurslardan optimal foydalanish imkonini yaratgan;

Samarqand viloyatidagi xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish orqali ulardagi iqtisodiy risklarni pasaytirishning 2025-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida»gi PF-101-son Farmonida belgilab berilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari» kotibiyati va O'zbekiston Respublikasi «Turonbank» aksiyadorlik tijorat bankining Risk departamenti tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi yakuniy variantining uchinchi bobida kichik biznes va tadbirkorlik sohasini tahlil qilishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-yanvardagi 02/1-3214-sonli va O'zbekiston Respublikasi «Turonbank» ATB boshqaruvining 2023-yil 13-fevraldagi 16/02-22-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarning ta'sir darajasini kamaytirish hisobiga iqtisodiy samaradorlik 30,9-33,8 % ga oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 8 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 2 ta risola, jami 11 ta maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy

nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi yetakchi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 122 betni tashkil etadi.

## **I-BOB. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA TADBIRKORLIK RISKLARINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1-§. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik risklarining mohiyati va ahamiyati**

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi iqtisodiy globallashuv sharoitida mamlakatlarning o'zaro integratsiyalashuvi va xalqaro ixtisoslashuvning kuchayishi har bir milliy iqtisodiyot oldiga tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mahalliy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning innovatsion yondoshuvlarini rag'batlantirish, ishlab chiqarilayotgan tovarlar hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish kabi vazifalarni qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, bandlikni ta'minlash, aholining daromadi va turmush sifatini oshirish maqsadida keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o'ylangan dasturlar qabul qilinganligi va ular izchil amalga oshirilayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida o'z ifodasini topgan<sup>5</sup>.

Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning natijadorligini yanada oshirish, davlat va jamiyatning barcha jabhalarini rivojlantirish hamda liberallashtirishda muhim dastur bo'lib xizmat qilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, Taraqqiyot strategiyasining

---

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. 8 b.

«Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash» deb nomlangan uchinchi yo'nalishida belgilangan maqsadlarning hayotga tadbiiq etib kelinayotganligi natijasida milliy iqtisodiyotimizning barcha sohalari va tarmoqlari qatorida xizmat ko'rsatish sohasi ham jadal rivojlanib, sohadagi tadbirkorlik subyektlari soni va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami oshib bormoqda.

Bugungi kunda jamiyat ravnaqi va aholi farovonligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati tobora ortib, milliy iqtisodiyotimizning lokomativ sohalaridan biriga aylanib borayotganiga qaramasdan, ushbu sohaning nazariy asoslarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari qatorida xizmat ko'rsatish sohasining ham ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish, sohadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni kompleks o'rganish hamda asoslangan ilmiy xulosalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladigan ishlarni belgilash xizmat ko'rsatish korxonalarining samarali faoliyat yuritishiga, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati hamda ko'laming yanada oshishiga va buning natijasida xizmat ko'rsatish sohaning jadal rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'z o'rnida aytib o'tish mumkinki xizmat (servis) – bu tadbirkorlik subyekti (yoki subyektlari) tomonidan iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun taklif etiluvchi nomoddiy mahsulotdir. Shuningdek, xizmat (yoki xizmatlar) ma'lum harakatlar majmuidan tashkil topadi va xizmat ko'rsatish subyektining faoliyatini ifodalaydi. Faoliyat esa moliyaviy-xo'jalik munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda yo'qotishlar xavfi doimo mavjud bo'ladi va bunday holatda risk darajasini baholash hamda uni pasaytirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Shu nuqtai nazardan xo'jalik faoliyatida yuzaga keladigan tadbirkorlik risklarining ilmiy-amaliy mohiyatini ochib berish va buning uchun iqtisodiy adabiyotlarni hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tanqidiy va tahliliy o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganishimiz natijasida aytish mumkinki, «risk» tushunchasining ilmiy-amaliy va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritib berishda iqtisodchi olimlarda turli qarashlar mavjud. Jumladan, bir guruh olimlar «risk» va «tavakkalchilik» tushunchasini sinonim tushunchalar deb ta'riflashsa, ikkinchi guruh «risk»ni «xavf-xatar (yoki xatar)» tushunchasi bilan bog'lashadi, uchunchi guruh olimlar esa ushbu tushunchalarning barchasi umumiy bir ma'noni anglatuvchi iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etishadi. Shu sababli, tadqiqotimiz avvalida ushbu tushunchalarning lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak.

O'zbek tili izohli lug'atida «tavakkalchilik» tushunchasiga «tavakkal bilan ish tutishlik, tavakkal ish», – deb izohlanishi bilan birga «tavakkal - vakolat olish; umid bog'lash; suyanish, ishonish», shuningdek, «1. Oqibat-natija qanday bo'lishidan qat'i nazar, biror ishga jazm qilish, nima bo'lsa bo'lar, yo ostidan, yo ustidan zaylida qilingan harakat. 2. O'zini Alloh irodasiga topshirish, butun umidni unga bog'lash, uning marhamatiga ishonish. 3. Tavakkalchilik bilan ish tutishni bildiruvchi, shunday hollarda qo'llanuvchi so'z» – deb<sup>6</sup>, «xavf-xatar» tushunchasiga esa «Ziyon-zahmat yetkazadigan tahlikali vaziyat»<sup>7</sup> – deb izoh berilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'atida «tavakkalchilik» va «xatar» tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tavakkalchilik – noaniqlik, qaror qabul qilish bilan bog'liq, amalga oshirilish faqat vaqt davomida ro'y beradi va u innovatsiyani joriy etish va yaratish jarayonida bilib bo'lmaydigan natijalarga olib kelishi mumkin»<sup>8</sup>, «Xarat (port. risiko - qoya) – salomatlik yoki hayotni, pul, mulkni kutilmaganda yo'qotish xavfi paydo bo'lishi...»<sup>9</sup> deb izohlangan.

---

<sup>6</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2008, 629-630 b. <https://www.ziyouz.uz>.

<sup>7</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2008, 373 b. <https://www.ziyouz.uz>.

<sup>8</sup>X.Mamatqulov. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. – 250 b.

<sup>9</sup>X.Mamatqulov. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. – 338 b.

Shu o'rinda, inglizcha - o'zbekcha lug'atga nazar tashlaydigan bo'lsak «Risk» deb «1. Xavf-xatar; 2. Xavfli tavakkal; 3. Xavf to'g'diradigan narsa yoki kishi», shuningdek, «1. Tavakkal qilmoq, tahlikaga solmoq; 2. Xavf-xarat ostida bo'lmoq, xavf ostida bo'lmoq»<sup>10</sup>, – degan ma'noni anglatishi, ruscha-o'zbekcha lug'atda esa «risk» tushunchasini «1. xavf-xatar, tahlika; qaltis ish; 2. tavakkal, tavakkalchilik»<sup>11</sup>, – degan ma'noni anglatishi e'tirof etilgan.

Ushbu tushunchalarning mohiyatini ochib berishda yuqoridagi lug'aviy manbalar bilan bir o'rinda ayni yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini hamda tadqiqot ishlarini o'rgangan holatda xulosa qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Tadbirkorlik faoliyatida risk nazariyasining shakllanishini dastlab Adam Smit yoritib bergan. U tadbirkorlikda ish haqidagi farqlarni risk omili sifatida qaradi. Bunda u ishchilarning doimiy ish bilan ta'minlanganligi yoki ta'minlanmaganligi nuqtai nazaridan qarab chiqib, doimiy ish bilan ta'minlangan ishchiga nisbatan doimiy ish bilan ta'minlanmagan ishchilar ko'proq ish haqi talab qilishini ta'kidladi. Keyinchalik bu xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi mehnat shartnomasi shartlarini shakllantirishning asosiy tamoyiliga aylanib, xodimning riskdan qochishi va tavakkalchilikka yo'l qo'ymaydigan firma to'g'risidagi nazariyaning asosini tashkil etdi.

Birinchi marta XVII asrda risk, tadbirkorlikning ajralmas qismi sifatida ilgari surildi. Shu nuqtai nazardan Shotlandiyalik fransuz iqtisodchisi R.Kantilon tadbirkorga qaror qabul qiluvchi va noaniqlik sharoitida o'z manfaatlarini qondiruvchi sifatida qaragan<sup>12</sup>. Risk konsepsiyasini ishlab chiqish, birinchi navbatda, tadbirkorning daromadlari mohiyatini o'rganish bilan bog'liq. Riskni muhim xususiyat sifatida baholashda Kantilon izdoshlari, asosan, o'xshash qarashlarga rioya qilishdi, ya'ni tadbirkorlik daromadi yoki uning bir qismi u yoki bu shaklda risk uchun to'lov bo'lib, avanslangan kapital va ish haqi bo'yicha daromad (foyda)dan sifat jihatidan farq qilishini ko'rsatib o'tdilar.

---

<sup>10</sup>U.Isaqov, M.Rahimov, B.Sobirov, S.Temirov, Sh.Isaqov. Inglizcha-O'zbekcha lug'at – T.: «Yangi asr avlodi», 2013-y. 428 b.

<sup>11</sup>Ruscha-O'zbekcha lug'at (II tom). O'zbek Sovet Ensiklopediyasi. – T.:1984 y. 358 b.

<sup>12</sup>Гурнович Т.Г. и другие. Учебник. Оценка и анализ риска. М.: Кнорус, 2019, 252 с.



Riskning kategoriya sifatida nazariy jihatlarini faqat XVIII asrdan boshlab ilmiy iqtisodiy tahlil obyektiga aylandi. Tadbirkorlik risklari to'g'risidagi tushunchalar va ta'riflar nazariyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, iqtisodiy risklar klassik va neoklassik nazariyalardan iborat. Qisqacha bu nazariyalarning mohiyatiga to'xtalamiz.

Iqtisodiy risklarning klassik nazariyasini yaratish J.S.Mill, N.U.Senior, F.X.Nayt (XIX asrning birinchi yarmi) kabi xorijiy iqtisodchi olimlarning qarashlari bilan bog'liq. Ular tadbirkorlik daromadlarini ikki tarkibiy qismdan iboratligini ko'rsatib o'tadilar, ya'ni:

1. Investitsiya qilingan kapitalning ulushi sifatidagi foizlar (yoki kapitalistning ish haqi).
2. Tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilik natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash.

Bunday qarash bir taraflama qarash edi va natijada XX asrning boshlarida tanqidga uchrab, tadbirkorlik risklarining neoklassik nazariyasi paydo bo'ldi. Neoklassik nazariyaning rivojlanish tarixi iqtisodchilar A.Marshall, A.S.Pigu hamda skandinaviya iqtisodchilar maktabi nomoyondalari nomlari bilan bog'liq.

Neoklassik iqtisodchilarning fikricha tadbirkorlik risklari ikkita qoidaga asosan aniqlanadi<sup>13</sup>, ya'ni:

1. Kutilayotgan foyda hajmi.
2. Foydaning mumkin bo'lgan tebranishlar (kutilayotgan qiymatdan chetlanish) qiymati.

Bu qarashlardan ma'lum bo'ladiki, tadbirkorlik risklarining neoklassik qarashlari va qoidalari risklar davrida yo'qotishlarni inkor etmagan holda, olinishi kutilayotgan daromad (foyda) miqdorining ma'lum chetlanishlarga ega bo'lishi mumkinligini nazarda tutadi.

Neoklassik nazariyaning taniqli vakillari - ingliz olimlari Alfred Marshall (1842-1924) va Artur Pigular (1877-1959) korxonalar bozor sharoitida noaniq vaziyatda ishlashini va foyda tasodifiy va o'zgaruvchan miqdorligini ko'rsatish bilan

---

<sup>13</sup>Мулен Г. Теория игр с примерами из математической экономики. М.: Мир, 1985.

birga, kutilayotgan foyda hajmi; uning mumkin bo'lgan tebranishlarining kattaligini boshqarish zarurligini ko'rsatib berdilar<sup>14</sup>.

Rejalashtirilgan natijadan og'ish ehtimoli sifatida neoklassik risk tushunchasi Angliya va Fransiyada 1920-1930 yillarda paydo bo'lgan. 1921 yilda amerikalik iqtisodchi Frenk Nayt birinchi marta o'ziga xos xavf sharoitida odamlarning oqilona xulq-atvori muammosini ko'targan. U birinchi bo'lib risk g'oyasini noaniqlikning miqdoriy o'lchovi sifatida ifoda etgan<sup>15</sup>.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati ma'lum tavakkalchiliklar asosida amalga oshiriladi. Tavakkalchilik bu ma'lum ma'noda riskli harakatni anglatadi. Shunday ekan, tadbirkor o'z faoliyatida qabul qilayotgan qarorining qanchalik darajada muvaffaqiyatli ekanligiga ishonch hosil qilishi juda ham muhimdir. Xuddi ana shuning uchun ham tadbirkorlik risklarini aniqlashning eng progressiv usullaridan foydalanish tadbirkor uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Imkoniyat tavakkalchilik va rentabellik o'rtasidagi aloqaning mavjudligi konsepsiyasiga asoslanadi. Risk qancha yuqori bo'lsa, potensial rentabellik shuncha yuqori bo'ladi. Risk noaniqlik sifatida mumkin bo'lgan natijalarni (ijobiy va salbiy) ehtimolli taqsimlash konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu konsepsiya doirasidagi risk - bu qarorlarning turli xil natijalari o'rtasidagi nomuvofiqlik o'lchovidir, ular foydaliligi, zararli ekanligi, shuningdek, tanlangan mezonlarga muvofiqligi va samaradorligi bilan baholanadi. Ushbu konsepsiya qarorlar qabul qilish nazariyasida noaniqlik sharoitida, o'yin nazariyasida qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, risklarni boshqarish o'z predmeti sifatida kutilgan natijalar hamda haqiqiy natijalar o'rtasidagi farqni kamaytiradi. Tadqiqotlar natijasida shuni aytish mumkinki, neoklassik nazariyotchilarning tadbirkorlik risklariga bo'lgan qarashlari, har bir tadbirkorga ularning faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholash imkoniyatini yaratadi. Ya'ni tadbirkor qabul qilgan qarorning qanchalik darajada iqtisodiy jihatdan asosli ekanligini baholash imkonini beradi.

---

<sup>14</sup>Мулен Г. Теория игр с примерами из математической экономики. М.: Мир, 1985.

<sup>15</sup>Найт Ф.Х. Риск, неопределенность и прибыль. М.: Дело, 2003.

Neoklassik risk nazariyasiga ko'ra, tadbirkorlik xatti-harakatlari marjinal foydalilik tushunchasi tomonidan boshqariladi. Bu shuni anglatadiki, ikkita variant mavjud bo'lganda, masalan, kapital qo'yilmalar, bir xil kutilgan foyda berib, tadbirkor kutilgan foydaning tebranishlari kamroq bo'lgan variantni tanlaydi. Binobarin, kichik, ammo kafolatlangan foyda katta, ammo shubhali foydadan ko'ra afzaldir.

Risklar jamiyat rivojlanishini ta'minlaydi. Innovatsion faoliyatda esa ilmiy texnik rivojlanishga olib keladi. Bunday rivojlanish bir tadbirkorning muvaffaqiyati bilan birga, ikkinchi tadbirkorning muvaffaqiyatsizligi natijasida ro'y beradi. Ikkinchidan tavakkal qilmagan foydaga erisha olmaydi ya'ni iqtisodiy foyda olish uchun tadbirkor ongli ravishda riskli qaror qabul qilishi zarur.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida axborotlar oqimining keskin tezlashuvi iqtisodchi olimlar tomonidan «risk» tushunchasiga berilgan ta'riflarni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra risk tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holatda unga quyidagicha ta'rif berishni lozim deb topdik: **risk – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlarining faoliyat natijalarini oldindan bashorat qilish imkonini bermaydigan, ayni vaqtda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini rag'batlantiradigan iqtisodiy hodisa.**

Demak, riskni iqtisodiy hodisa sifatida tushunishimiz zarur. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, risk tushunchasi mazmun mohiyatiga ko'ra nafaqat xavf-xatar, tahlikali vaziyat va yo'qotish xavfini balki, yangi imkoniyat hamda harakatga undovchi vaziyatni ham anglatadi.

Iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ko'p hollarda risk va tavakkalchilik tushunchalarini mazmunan bir tushunchalar sifatida e'tirof etishlarini yuqoridagi fikr-mulohazalarimizda ta'kidlab o'tgan edik. Albatta, risk va tavakkalchilik mazmunan bir ma'noni anglatuvchi tushunchalar sifatida ta'riflash to'g'ridek tuyulsada, bizning nazarimizda tavakkalchilik tushunchasining asl mohiyatiga e'tibor bergan holda ta'riflash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan, tavakkalchilik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga

**muvofig: tavakkalchilik – bu foydaga erishish maqsadida, natijasi oldindan aniq bo'lmagan xo'jalik faoliyatini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq bo'lgan riskli harakatdir.**

Xulosa qilib aytishimiz lozimki, har qanday xo'jalik subyekti o'z faoliyatini tavakkalchilik asosida olib boradi. Negaki, tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining ajiralmas xususiyati hisoblanadi va u harakatni anglatadi. Ya'ni, tadbirkorlik subyekti o'zining maqsadiga erishish uchun avvalo natijasi oldindan aniq bo'lmagan harakatni amalga oshiradi va bu harakati davomida tadbirkorlik subyekti turli yo'qotish tahlikasi mavjud bo'lgan hodisalarga duch kelishi mumkin. Shunday ekan, bunday harakatning muvaffaqiyati yuzaga keladigan va yoki kelish ehtimoli bo'lgan risklarni tahlil qilish hamda ularni mumkin qadar obyektiv baholashga bog'liqdir.

### **1.2-§. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik risklarining tavsifi va uni tasniflash**

Inson hayotining zamonaviy shart-sharoitlari axborot hajmining doimiy ravishda oshib borishi, ijtimoiy tizimda ham atrof-muhit bilan munosabatlarning qiyinlashib borishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bugungi kunda globallashuv, ilmiy-texnika taraqqiyoti jarayonlari jadallashib, tabiiy resurslarni iste'mol qilish hajmi ortib bormoqda. Bunday sharoitda inson mehnatining tabiati hamda yo'nalishiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi va bu ta'sirning oldindan aytib bo'lmaslik ehtimoli kuchayadi. Natijada rivojlanishning noaniqlik darajasi doimiy ravishda o'sib boradi, ko'rsatkichlarni bashorat qilish, maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish uchun tadbirlarni amalga oshirish tobora murakkablashadi. Bularning barchasi risklarni o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligini anglatadi. Insonlarning iqtisodiy faoliyati risk bilan chambarchas bog'liq, boshqacha qilib aytganda, insonlarning ko'plab qarorlarini qabul qilishida ochiqlik, ziddiyatlilik, stoxastiklik kabi obyektiv hamda subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi va bu ma'lum darajada riskka olib keladi.

Bozor munosabatlari sharoitida to'liq bo'lmagan axborot ochiqligi, qarama-qarshiliklarning mavjudligi, stoxastiklik bilan tavsiflanadi, shuning uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda risk ta'sirini hisobga olish zarur. Risk – bu biznesning ajralmas xususiyatidir. Tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish uchun texnik va texnologik yangiliklarni amaliyotga tadbiiq etish hamda ularni dadil, odatiy bo'lmagan qarorlar qabul qilish orqali tarqatish zarur. Shu bilan birga, riskdan qochish, tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishini cheklaydi, shuning uchun tadbirkor risk oqibatlarini yumshatish uchun uni baholash va boshqarish usullariga ega bo'lishi kerak.

Risk tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyati sifatida raqobat sharoitida biznes jarayonlari ishtirokchilarining zarur harakatlarini aniq bashorat qilish imkonini bermaydi. Tadbirkorlik qarorlari aksariyat hollarda bir necha mumkin bo'lgan muqobil variantlar ichidan voqealar rivoji ssenariysini tanlab olish va ularning natijalarini noaniqlik sharoitida bashorat qilish orqali qabul qilinadi. Bunda albatta tadbirkor (yoki tadbirkorlik subyekti) tavakkal qiladi.

Tahlil qilishda qulay bo'lishi uchun risklarni ularning xususiyatlariga qarab tasniflash va shu orqali baholash hamda ta'sir darajasini pasaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan avvalo iqtisodiy adabiyotlarda risklarni tasniflashga qaratilgan fikr-mulohazalar va takliflar tahlilini amalga oshirishni zarur deb topdik.

Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni turli guruhlariga ajratib tasniflash va ularni pasaytirish usullari taklif etilgan. Ulardan eng ahamiyatlilariga to'xtalib o'tamiz.

Risklarni tadqiq qilish V.A.Akimov, S.P.Voronov, N.N.Radayevlar<sup>16</sup>, S.M.Vasin, V.S.Shutov<sup>17</sup>, Y.D.Vishnyakov, N.N.Radayev<sup>18</sup>, G.Mulen<sup>19</sup>, T.G.Gurnovich<sup>20</sup> va boshqa shu kabi iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular risklarni ko'plab qarama-qarshi asoslarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qabul qilgan va risk mazmunini, uning

---

<sup>16</sup>Акимов В.А., Воронов С.П., Радаев Н.Н. Концепции риска и концепции анализа риска // Стратегия гражданской защиты: проблемы и исследования. 2013. Вып. № 2. Т. 3. С. 562-567.

<sup>17</sup>Васин С.М., Шутов В.С. Управление рисками на предприятии учебник. М.: КНОРУС, 2007.

<sup>18</sup>Вишняков Я.Д., Радаев Н.Н. Общая теория рисков: учебное пособие. М.: Академия, 2008.

<sup>19</sup>Мулен Г. Теория игр с примерами из математической экономики. М.: Мир, 1985.

<sup>20</sup>Гурнович Т.Г. и другие. Учебник. Оценка и анализ риска. М.: Кнорус, 2019,252с.

funksiyalari va biznesga ta'sirini aniqlash bo'yicha qarashlarini taklif qilgan. Ular tavakkalchilikni ko'plab qarama-qarshi asoslarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ta'riflagan va tavakkal mazmunini, uning funksiyalari va biznesga ta'sirini aniqlash bo'yicha qarashlarini taklif qilgan.

Shu o'rinda iqtisodchi olimlarning riskga oid ilmiy tadqiqotlariga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Iqtisodchi olimlar O.A.Firsova<sup>21</sup> va I.A.Sokolovalarning<sup>22</sup> ilmiy tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatidagi risklarni tashqi va ichki guruhlariga bo'lgan. Bunda tashqi risklar guruhiga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, xuquqiy, moliyaviy, valyuta, inflatsiyaviy, fors major, tabiiy, bozor konyukturasining o'zgarishi, iste'molchining to'lov qobiliyati pasayishi bilan bog'liq risklarni kiritgan. Ichki risklar guruhini esa strategik, taktik va operativ risklar guruhiga bo'lgan. Ammo, uning ishida ayrim noaniqliklar mavjud.

Y.M.Xitrova<sup>23</sup> risklarni iqtisodiy natijalariga ko'ra sof va chayqov risklari guruhiga ajratgan. Ishda risklarning bu guruhlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, risklarning vujudga kelish jihatlarini to'liq qamrab ololmagan.

N.V.Kuznesova<sup>24</sup> o'z tadqiqotlarida korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatida vujudga keladigan risklarni hududiy, tabiiy-iqlimiy, siyosiy, xuquqiy, tashkiliy, shaxsiy, kredit, valyuta, moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, hisobiy, mulkiy va transport risklariga ajratib ko'rsatgan. Bizning fikrmizcha risklarni guruhlariga ajratmasdan bunday tasniflash, ularni tahlil qilish va baholash ishlarini qiyinlashtiradi.

A.R.Samoxvalovanning<sup>25</sup> tadqiqotlarida tadbirkorlik risklari ularning tadbirkorlik faoliyatining doirasiga, riskning ta'sir qilish davriga, riskli holatlarning vujudga kelish chastotasiga, riskning vujudga kelish sohasiga, yechim sohasiga, riskli holatlarning oqibati tavsifiga, tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir qilish

---

<sup>21</sup>Фирсова О.А. Управление рисками организаций. Учебное пособие Орел: МАБИВ, 2014.-100с.

<sup>22</sup>Соколова И.А. Управление предпринимательскими рисками на предприятиях сферы услуг. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н., Тольятти-2005.

<sup>23</sup>Хитрова Е.М. Основы управления рисками. Учебное пособие.Иркутск. Издательство БГУ. – 2016.

<sup>24</sup>Кузнецова Н.В. Управление рисками. Учебное пособие. Издательства Дальневосточного университета, 2004.

<sup>25</sup>Самохвалова А.Р. Управление предпринимательскими рисками. Автореферат диссертации на соискание к.э.н.,Москва -2004.

darajasiga hamda tadbirkorlik faoliyati turiga qarab turlarga ajratilgan. Bu risklarning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlashga yordam bersada, risklarning turlarini to'liq qamrab ololmaydi.

G.A.Axtamovaning<sup>26</sup> ilmiy tadqiqotlarida risklarni vujudga keltiruvchi omillarning xususiyatlari ochib berilgan. Ammo, muallif tadqiqotlarida o'rganilgan risklarni to'liq tasniflangan deb bo'lmaydi.

A.T.Romanova va Y.V.Smolyakovalarning<sup>27</sup> tadqiqotlarida har qanday ishlab chiqarish iqtisodiy tuzilmalar uchun xarakterli bo'lgan risklarning turlari hamda xalqaro transport tizimida vujudga keladigan risklarning umumiy manbalari yoritilgan bo'lib, risklarni baholash, tahlil qilish va ularni boshqarish usullarini tanlash ko'rsatib berilgan. Risklarni boshqarishning bu usullari o'ziga xos bo'lib, asosan transport tizimlarida qo'llash xususiyatiga ega.

L.A.Zirchenkoning<sup>28</sup> tadqiqotlarida tadbirkorlik risklari tushunchasiga, tadbirkorlik faoliyati natijalarini shakllantirishda risklarning ta'sir darajasini korrektyrovka qilish orqali risklarni boshqarishning maqsadli funksiyalariga aniqlik kiritish bilan birga, tadbirkorlik faoliyatida ko'p uchraydigan iqtisodiy risklarni vujudga keltiradigan omillarni tizimlashtirishga harakat qilingan.

I.A.Kiseleva va N.Ye.Simonovichlarning<sup>29</sup> tadqiqotlarida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida ko'p uchraydigan strategik, moslik, operatsion, moliyaviy va obro'-e'tiborga qaratilgan risklarni tadqiq qilish bilan birga, risklarni muddatliligi (qisqa muddatli, uzoq muddatli), statistik va dinamik, sug'urtalanadigan va sug'urtalanmaydigan risklar guruhiga bo'lib tadqiq etgan. Bu tadqiqotlar natijasida ularning ta'sir darajasini minimallashtirish ko'rsatib berilgan.

Raqobat muhitida yuqori daromad olish uchun, avvalo, daromad olish imkoniyatiga mos keladigan shunday bozor o'rnini topish bilan birga ma'lum bir loyihada juda ko'p noaniq omillar mavjudligiga va muvaffaqiyatsizlikka uchrashi

---

<sup>26</sup>Ахтамова Г.А. Управление предпринимательскими рисками в сфере услуг. Автореферат диссертации на соискание к.э.н., Москва -2004.

<sup>27</sup>Романова А.Т., Смолякова Е.В. Управление рисками в международных транспортных системах. Учебное пособие.- М.:РУТ (МИИТ), 2019. – 133 с.

<sup>28</sup>Зирченко Л.А. Совершенствование системы управления рисками в процессе развития предпринимательских структур. Диссертация на соискание ученой степени к.э.н.,Санкт Петербург – 2019.

<sup>29</sup>Киселева И.А., Н.Е.Симонович Оценка рисков в бизнесе: предпринимательские риски//Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2017, т.10, вып.3.,стр. 244-257.

mumkinligiga qaramay, uni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish zarur bo'ladi. Jahonda bozor iqtisodiyotining chuqurlashib borishi risklar to'g'risida ko'proq savollarni tug'dirmoqda. Bunda eng qiyin bo'lgan mablag' qo'yish, risklarni boshqarish va hal qilishning optimal variantini tanlash masalasida qarab chiqilgan nazariy va amaliy ilmiy qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Risklarni tasniflash bo'yicha iqtisodiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, bizning nazarimizda ineternet <https://www.grandars.ru><sup>30</sup> saytida risklarni tasniflash bo'yicha keltirilgan umumlashma ma'lumotlar risklarni to'liq tasniflash imkonini beradi. Unga ko'ra risklar kelib chiqish omillariga qarab uchta katta guruhga ajratilgan, ya'ni: tabiiy-iqlimiy risklar; siyosiy risklar; xo'jalik risklari.

**Birinchi guruh risklariga** quyidagilar kiradi: tabiatda inson irodasiga bo'ysinmaydigan hodisalar (zilzilalar, suv toshqinlar, bo'ronlar, epidemiyalar va boshqa shu kabi holatlar) oqibatida to'satdan (stixiyali tarzda) vujudga keladigan risklar.

**Ikkinchi guruh risklari** mamlakatdagi siyosiy holat va hukumat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: harbiy holatning vujudga kelishi, inqiloblar va mamlakat ichki siyosiy holatining keskinlashuvi oqibatida vujudga keladigan risklar. Bunga xo'jalik faoliyatini olib borish imkoniyatining yo'qolishi riski, korxonalarining xususiylashtirilishidagi risk, korxonalarni yoki tovarlarni konfiskatsiya qilishdagi risk, embargo joriy etishdagi (ya'ni davlat tomonidan tovar va valyutalarni kiritish yoki chiqarishni man etish) risk, yangi hokimiyatning avvalgi hokimiyat majburiyatlarini inkor etishi natijasida yuga keladigan risk, favqulodda holat sababli ma'lum bir muddatga tashqi to'lovlarni moratoriy qilishdagi (to'xtatishdagi) risk, davlat tomonidan soliq siyosatining o'zgartirilishi natijasida yuzaga kelgan risk va boshqalar.

**Uchinchi guruh risklariga** esa: favqulodda holatlardagi avariyaalar, yong'inlar, o'g'irliklar, mol-mulkni saqlash tartib qoidalarining buzilishi va qo'poruvchilik natijasida mol-mulkning tasodifiy yo'qotilishi natijasidagi risklar, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk, iqtisodiy risk, narx-navo riski,

---

<sup>30</sup><https://www.grandars.ru> Классификация предпринимательских рисков.



marketing riski, valyuta riski, foyiz riski, inflatsiya riski, investitsiya riski, to'lov qobiliyatini yo'qotishdagi risk, transport riski.

Har bir guruhga tegishli bo'lgan risklar tarkibi va ularning vujudga kelish shart sharoitlari quyidagi 1.1-jadvalda tartiblashtirilgan. Risklarni bunday tasniflash ularni baholash uchun qulaylik tug'diradi. Mazkur tasniflash tizimi tadbirkorlik faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda shartli xarakterga ega bo'lib, avvalo tadbirkorlik faoliyatida sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga bog'liqdir.

**1.1-jadval**

**Risklar tasnifi va ularning vujudga kelish shart-sharoitlari**

Risklar guruhiga tegishli risklar		Risklarning vujudga kelish shart-sharoitlari
1-guruh	Zilzilalardagi risklar	Inson irodasiga bo'ysinmaydigan hodisalar oqibatida to'satdan (stixiyali tarzda) vujudga keladi
	Suv toshqinlaridagi risklar	
	Bo'ronlardagi risklar	
	Epidemiyalardagi risklar	
2-guruh	Xo'jalik faoliyatini olib borish imkoniyati yo'qolishi bilan bog'liq risk	Harbiy holatning vujudga kelishi, inqiloblar va mamlakat siyosiy holatining keskinlashuvi oqibatida vujudga keladi
	Korxonalarining xususiylashtirilishidagi risk	
	Korxonalarni yoki tovarlarni konfiskatsiya qilishdagi risk	
	Embargo joriy etishdagi, ya'ni davlat tomonidan tovar va valyutalarni kiritish yoki chiqarishni man etishdagi risk	
	Yangi hokimiyatning avvalgi hokimiyat majburiyatlarini inkor etishidagi risk	
	Favqulodda holat sababli ma'lum bir muddatga tashqi to'lovlarni moratoriy qilishdagi (to'xtatishdagi) risk	
	Davlat tomonidan soliq siyosatining o'zgartirilishidagi risk	

<b>3-guruh</b>	Mol-mulkning tasodifiy yo'qotilishi riski	Avariylar, yong'inlar, o'g'irliklar, saqlash tartib qoidalarining buzilishi va qo'poruvchilik natijasida vujudga keladi
	Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk	Tijoratdagi sheriklarning vijdonan ishlamasligi, ularning olgan majburiyatlarini bajarmasligi yoki ular to'lov qobiliyatining yo'qolishi oqibatida vujudga keladi.
	Iqtisodiy risk	Korxonada iqtisodiy faoliyat jarayonining buzilishi va rejalashtirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilmasligi oqibatida vujudga keladi (masalan tovar realizatsiyasi yoki foyda hajmlari). Bu bozordagi holatning o'zgarishiga shu bilan birga korxonada menejerlarining noto'g'ri hisob-kitoblari natijasida ro'y beradi.
	Narx-navo riski	Eng xavfli risklardan biri bo'lib, korxonada daromadi va foydasining kamayishi bilan bog'liq. U tovar ishlab chiqaruvchilar sotuv bahosining, vositachi tashkilotlarning ulgurji bahosining, boshqa xizmat ko'rsatish tashkilotlari narx va ta'riflarning ko'tarilishi natijasida vujudga keladi.
	Marketing riski	Bozorda harakatlanish strategiyasining noto'g'ri tanlanishi (iste'molchiga noto'g'ri yo'naltirish, assortimentdagi xatoliklar) natijasida vujudga keladi
	Valyuta riski	Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tijorat operatsiyalariga taalluqli bo'lib, valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida valyuta yo'qotilishida vujudga keladi.
	Foiz riski	Bank tomonidan korxonaga berilgan kredit foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida vujudga keladi.
	Inflatsiya riski	Korxonada pul daromadlarining inflatsiya o'sishida qadrsizlanishi natijasida vujudga keladi.
	Investitsiya riski	Korxonaning investitsion faoliyatida kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar natijasida vujudga keladi.
	To'lov qobiliyatini yo'qotishdagi risk	Korxonaning pul mablag'lari tushimi va sarfi hajmining vaqt bo'yicha noto'g'ri rejalashtirilishi oqibatida vujudga keladi.
	Transport riski	Bu transportirovka qilish vaqtida tovarlarning buzilish natijasida vujudga keladi.

Tasniflangan ushbu risklar muayyan makon va zamonda tadbirkorlik subyektlariga ta'sir ko'rsatuvchi risklar darajasini baholash imkonini beradi.

### **1.3-§. Xizmat ko'rsatish korxonalarida tadbirkorlik risklarini baholashning metodologik asoslari**

Tadbirkorlik faoliyatida xoh u ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lsin turli darajadagi risklarga duch kelishi tabiiy holdir. Boshqacha qilib

aytdigan bo'lsak risklar tadbirkorlik subyektlari faoliyatining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Bu holatni inkor etish, ular faoliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shunday ekan, tadbirkor o'z faoliyatini qat'iy hisob-kitoblar va aniq strategiya asosida olib borishi lozim. Bu ular faoliyatining muvaffaqiyatini belgilab beruvchi eng ishonchli jarayon bo'lib, bunda turli usullardan foydalanish taqozo etiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni tahlil qilish, baholash va ularning ta'sir darajasini pasaytirishning bir qator usullari keltirilgan bo'lsada, bu usullar risklarning vujudga kelish shart-sharoitlarini, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kompleks tarzda e'tiborga olish imkoniyatini bermaydi. Shu nuqtai nazardan risklarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini o'rganish va baholash zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi. Shu maqsadda tadbirkorlik faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholash va uni pasaytirishning tahlillar hamda tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan usullariga to'xtalamiz.

**Mehnat resruslaridan foydalanishda fors-major holatlarda ish vaqti yo'qotilishining sabablari va ularni baholash usuli.** Bunday risklar odatda tadbirkorlik subyektlarida favqulotda va tashkiliy holatlarda ro'y beradigan risklardir. Bunday risklarga mashina mexanizmlarining to'satdan buzilishi, turli avariyaalarning ro'y berishi, kerakli mashina (texnika)larning bo'lmay qolishi, og'ir qo'l mehnatining mavjudligi, sanitar maishiy xonalar yetishmasligi, sanitar gigeniya sharoitlarining qoniqarsizligi, jamoat ovqatlanish xonalarining yetishmasligi, jismoniy madaniyatni rivojlantirishning past darajasi, ishlab chiqarish texnologiyalarining buzilishi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasining pastligi, xavfsiz ishlashga o'rgatishdagi kamchiliklar, ishchilardan o'z mutaxassisligi bo'yicha foydalanmaslik, shaxsiy texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishi oqibatida ro'y beradigan risklarni kiritishimiz mumkin. Ish vaqtini bunday yo'qotishlar natijasida korxonada bajariladigan ish hajmlari kamayadi va mehnat unumdorligi pasayib ketadi. Bu esa o'z navbatida korxonaning umumiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## Fors-major holatlarda ish vaqti yo'qotilishining sabablari tasniflanishi

Ish vaqtining yo'qotilishi	Ish vaqtining yo'qotilishining sabablari
1	2
<b>Smena ichidagi yo'qotishlar</b>	
Smena ichidagi bo'sh qolishlar (prostoylar)	Elektr energiyaning to'satdan uzilishi
	Mashina va mexanizmlarning to'satdan buzilishi
	Tasodifiy-tashkiliy sabablar
Ortiqcha ishlar uchun sarflanadigan ish vaqtlari:	Loyiha hujjatlarining nosozligi
- ishdagi yaroqsiz mahsulotni sozlashga	Ish jarayonida loyihaning o'zgartirilishi
	Sifatsiz materiallardan foydalanish
	Ishni bajarishda texnologiyaning buzilishi
	Ishchilarning aybi bilan
- boshqa unumsiz mehnatga	Mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishning pastligi
Ishchi kadrlar qo'nimsizligi tufayli	Ish haqining pastligi
	Mehnat intizomining buzilishi
<b>To'liq smenali yo'qotishlar</b>	
To'liq smenali bo'sh qolishlar (prostoylar)	Elektr energiyaning to'satdan uzilishi
	Mashina va mexanizmlarning to'satdan buzilishi
	Tasodifiy-tashkiliy sabablar
	Atmosfera sharoiti tufayli
Ishlab chiqarish jarohati tufayli	Mashina va mexanizmlarning nosozligi
	Ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi
	Ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi pastligi

Bunda smena ichidagi bo'sh qolishlar korxonada ish vaqtini fotografiya qilish (IVFQ) orqali aniqlanadi. Korxonaning yillik smena ichidagi ish vaqtlarini yo'qotish miqdorini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin bo'ladi:

$$B_{\text{CH}} = B_{\text{CH}}^1 * N * B_{\Phi} \quad (1.1)$$

bu yerda,

$B_{\text{CH}}^1$  – bir ishchining smena ichidagi bo'sh qolish vaqti, % da, IVFQ natijalari bo'yicha olinadi;

$N$  – korxonada ishlaydigan ishchilarning umumiy soni, nafar;

$B_{\Phi}$  – yillik ish vaqti fondi, kunlarda.

To'liq smenali ish vaqtini yo'qotishlar ( $V_s$ ) korxonada hisobotlari bo'yicha aniqlanadi.

Ish vaqtini yo'qotishning zahira hosil qiluvchi qismi qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$B_{uk}^3 = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m B_{ij} * \beta_{ij} \quad \text{ishchi kun, (1.2)}$$

bunda:

$B_{ij}$  –  $i$  - turdagi yo'qotishning  $j$  - sababga ko'ra yo'qotilgan ishchi kunlari soni;

$\beta_{ij}$  –  $i$  - turdagi yo'qotishning  $j$  - sababga ko'ra yo'qotilgan ishchi kunlari miqdorini korxonada tomonidan yo'qotish mumkinligi darajasini ifodalovchi koeffitsiyent bo'lib, bunda  $n$  - ish vaqtini yo'qotish turlari soni ( $n=1,2,\dots,i$ ),  $m$  - mos turlari bo'yicha ish vaqtini yo'qotish turlari soni ( $m=1,2,\dots,j$ ).

Ish vaqtini asossiz yo'qotish darajasini pasaytirishni ifodalovchi  $\beta_{ij}$  koeffitsiyent miqdori ikki holga asoslanadi. Birinchisi  $\beta_{ij}$  - ish vaqtini asossiz yo'qotish darajasini to'liq bartaraf qilish, bunda  $\beta_{ij}=1$  ga teng bo'ladi. Ikkinchisi qisman bartaraf qilish, bunda  $\beta_{ij}$  ning qiymati 0 bilan 1 oralig'ida bo'ladi, ya'ni  $0 \leq \beta_{ij} \leq 1$ .

Yuqorida keltirilganlarga binoan qaralayotgan xo'jalik subyekti bo'yicha ish vaqtlarining asossiz yo'qotilish miqdori aniqlanadi. Ularni bartaraf qilish uchun ba'zi tadbirlar dasturini tuzish talab etiladi. Masalan qo'shimcha elektr ta'minoti uskunalari zaxiralash, mashina va uskunalarning ehtiyot qismlarini tayyorlash, ishchilarga texnika xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha tushunchalar (instruktaj) berish va h.k. Bu korxonada faoliyatida qo'shimcha unumdorlikka erishish imkoniyatini beradi. Korxonaning qo'shimcha unumdorligini aniqlash uchun avvalo bir ishchi kuniga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmini aniqlash zarur bo'ladi. Bu quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_y^1 = \frac{V}{N_{HK}}, \text{ so'm/ ishchi kun, (1.3)}$$

Bunda:

$V$  - bajarilgan yillik ish hajmi, so'mda;

$N_{HK}$  - korxonada foydalanilgan yillik ishchi kunlari soni.

Mehnat resruslaridan foydalanishda fors-major holatlarda ish vaqti yo'qotilishining oldini olish bo'yicha turli tadbirlar natijasida korxonaning yillik mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Korxonada ish vaqtlarini yo'qotishning oldini olishda  $\beta_{ij}$  ning qiymatidan foydalanamiz. Bu koeffitsiyent **0** bilan **1** oralig'ida bo'ladi, ya'ni  $0 < \beta_{ij} < 1$ . Uning qiymati ishlab chiqilgan tadbirlarning samaradorligiga bog'liq bo'lib, bu ekspertlar yordamida aniqlanishi mumkin. U holda korxonaning qo'shimcha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta V = B_{HK}^3 * V_y^1, \text{ so'mda (1.4)}$$

Bu ifoda orqali ishlab chiqilgan tadbirlarning iqtisodiy samarasini aniqlash imkonini beradi.

Mehnat resruslaridan foydalanishda fors-major holatlarda ish vaqti yo'qotilishining oldini olish tadbirlarining amaliy tadbirini dissertatsiya ishimizning uchinchi bobida ko'rib chiqamiz.

**Risklarning ta'sir darajasini aniqlashning ekspert usuli.** Risklarni baholash murakkabligi ular to'g'risidagi ma'lumotlarning yo'qligi yoki to'liq emasligi bilan belgilanadi. Ko'pchilik holatlarda ularning kutilmagan holda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa va holatlarni prognoz qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning uchun avvalo ularning ta'sir darajasini o'rganish maqsadga muvofiq. Risklar to'g'risidagi axborotlarning mavhumligi, ularning tasodifiy holatlarini e'tiborga olib, 1.2 badda keltirilgan risklarning tasnifi asosida ularning ta'sir darajasini ekspert baholari yordamida aniqlash maqsadga muvofiq. Bu masalani yechish uchun quyidagi ekspert so'rov anketa jadvallaridan foydalanamiz (1.2 va 1.3-jadvallar). Keltirilgan 1.2-jadvalga binoan tadbirkorlik risklarini vujudga keltiradigan omillar baholanadi. Bu jadvalga risklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillar kiritildi.

Shundan so'ng ekspertlar tomonidan har bir riskning tadbirkorlik subyekti faoliyatiga (foydasi yoki daromadiga) ta'sir ko'rsatish darajasini ifodalovchi bahosi qo'yib chiqiladi va barcha ekspertlar tomonidan berilgan baho umumlashtiriladi, ya'ni har bir ekspert tomonidan har bir riskka nechtadan 1, 2, 3, 4 va 5 baholar qo'yganligini mos ravishda jadvalga kiritamiz. Bunda tadqiqotda ishtirok etayotgan ekspertlar soni 100 nafardan kam bo'lmasligi talab etiladi.

**1.2-jadval**

**Tadbirkorlik risklarini vujudga keltiradigan omillarga bergan ekspert bahosi<sup>31</sup>**

№	Risklarning vujudga kelishida ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Ekspert bahosi				
		1	2	3	4	5
1.	Risk deganda faqat xatarni tushunasizmi?					
2.	Tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishning sifatli emasligi					
3.	Strategiya va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida izchillik yo'qligi					
4.	Kelajakda yuzaga keladigan risklardan ko'ra, hozirgi yoki o'tgan davrdagi risklarga ko'proq e'tibor qaratish					
5.	Riskni baholash murakkabligi bilan risk ro'y bergan holatning mos kelmaslik darajasi					
6.	Riskni baholashda aniq bir nuqtai nazar yo'qligi					
7.	Risklarni baholash me'zonlarining mavjud emasligi					
8.	Asosiy risklarni aniqlashda yuqori darajadagi rahbariyat bilan nomuvofiqliklar					
9.	Faoliyatni tahlil qilishda va ustuvorlikni aniqlashda noto'g'ri usullardan foydalanish					
10.	Risklarni aniqlashdan boshlab, ularni minimallashtirish to'g'risida qaror qabul qilinguncha bo'lgan muddat kattaligi					
11.	Fors-mojor holatlar					

Bunda omillarning risklarni keltirib chiqarishdagi ta'sir ko'rsatish darajasini 3 kategoriyaga ajratish maqsadga muvofiq, ya'ni risklarning vujudga kelishida ta'sir ko'rsatuvchi omillarni baholash 1 dan 5 gacha bo'lib, ekspertlar tomonidan uning ta'sir ko'rsatish bahosi to'g'risiga (+) belgisi qo'yiladi. Bunda omillarning risklarni vujudga keltirishdagi ta'sir darajasi ekspert baholari qiymatining o'sishiga to'g'ri proporsional bo'ladi.

<sup>31</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Omllarning risklarni vujudga keltirishdagi umumiy ta'sirini  $Q_{ij}$  koeffitsiyent orqali aniqlaymiz:

$$Q_{ij} = \frac{Z_{ij}}{n}, \quad (1.5)$$

Bunda,  $Z_{ij}$  – i-omilning j-riskni vujudga keltirishda mos ravishdagi 1, 2, 3, 4 va 5 baholar soni;

$n$  – ekspertlar soni.

$Q_{ij}$  koeffitsiyent omllarning risklarni vujudga keltirishdagi ahamiyatlilik darajasini ifodalab, uning qiymati  $0 \leq Q_{ij} \leq 1$  oraliqda bo'ladi. Aniqlangan natijalarni 1.3-jadvalga kiritamiz.

**1.3-jadval**

**Omllarning risklarni vujudga keltirishdagi ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun ekspert so'rov natijalari<sup>32</sup>**

№	Risklarni vujudga keltiruvchi omillar	Omllarning risklarni vujudga keltirishdagi ahamiyatlilik darajasini ifodalovchi koeffitsiyent, $(\alpha_{ij}), 0 \leq Z_{ij} \leq 1$				
		$Z_{1j}$	$Z_{2j}$	$Z_{3j}$	$Z_{4j}$	$Z_{5j}$
...	...	...	...	...	...	...
...	...	...	...	...	...	...
...	...	...	...	...	...	...

Jadvalga kiritilgan natijalar yordamida risklarni vujudga keltirishda ta'sir doirasi katta bo'lgan omillar aniqlanadi va ular asosida omllarning ta'sir doirasini pasaytirish bo'yicha tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi. Bu tadbirlar dasturi omllarning xususiyatiga bog'liq bo'lganligi uchun bu masala yechimini dissertatsiya ishimizning 3.1 bandida ko'rib chiqamiz.

Navbatdagi qadam risklarning tadbirkorlik sub'yektlari faoliyat natijasiga, ya'ni foyda ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Risklarning tadbirkorlik sub'yektlari foydasiga ta'sir darajasini  $(\alpha_{ij})$  aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\alpha_{ij} = (B_{ij} / n) * 100, \text{ foizda} \quad (1.2)$$

<sup>32</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Bunda,  $B_{ij}$  – j-riskning tadbirkorlik sub'yektiga ta'sir darajasini ko'rsatuvchi mos ravishdagi «1», «2», «3», «4 va 5» baholar soni;

$n$  – ekspertlar soni.

Risklarning ta'sir ko'rsatish darajasini 4 kategoriyaga ajratish maqsadga muvofiq, ya'ni ta'sir darajasi **juda past bo'lgan risklar** (baholash ko'rsatkichi 1). Bunday risklar tadbirkorlik subyektlari faoliyat davomida doimo bo'ladi va u ziyon yetkaza olmaydi. Uning qiymati  $0 \leq \alpha_i \leq 15$  chegarada bo'ladi; ta'sir darajasi **kuchsiz bo'lgan risklar** (baholash ko'rsatkichi. Bunday risklar unchalik katta ziyon yetkaza olmaydi. Uning qiymati  $16 \leq \alpha_i \leq 20$  chegarada bo'ladi; ta'sir darajasi **o'rtacha bo'lgan risklar** (baholash ko'rsatkichi. Bunday risklar keskin ("jiddiy") risklar bo'lib, faoliyatni tang ahvolga olib kelishi mumkin. Uning qiymati  $20 \leq \alpha_i \leq 50$ ; **kuchli ta'sir ko'rsatuvchi** risklar (baholash ko'rsatkichi 4 va 5). Bunday risklar katastrofik ("halokatli") risklar bo'lib, tadbirkorlik subyektining to'lov qobiliyatini yo'qotadi va bankrotlikka olib keladi. Uning qiymati esa  $51 \leq \alpha_i \leq 100$  chegarada bo'ladi. Bunda risklarning tadbirkorlik subyektlari foydasiga ta'sir darajasini ( $\alpha_{ij}$ ) aniqlashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

Bunda baholash ko'rsatkichlari: 1 – ta'sir darajasi juda past bo'lgan risklarni, 2 - ta'sir darajasi **kuchsiz bo'lgan risklarni**, 3 – ta'sir darajasi **“o'rtacha”** bo'lgan risklarni, 4-5 – ta'sir darajasi **“kuchli”** bo'lgan risklarni bildiradi va har bir ekspert tomonidan belgilangan mezonlar asosida baholanadi.

**1.4-jadval**

**Risklarning ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra o'tkazilgan ekspert so'rov natijalari<sup>33</sup>**

Risk guruhi	Risklar	Ekspertlar soni	Ekspert bahosi				
			1	2	3	4	5
...	...	...					
...	...						
...	...						

<sup>33</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilganlarga asosan boshlang'ich ekspret so'rov natijalarini 1.4 jadvalga kiritamiz va (1.2) formula yordamida risklarning tadbirkorlik subyektlari foydasiga ta'sir ko'rsatish darajasini aniqlaymiz va natijalani 1.5-jadvalga kiritamiz.

### 1.5-jadval

#### Risklarning tadbirkorlik sub'ektlariga ta'sir darajasini aniqlash jadvali<sup>34</sup>

Risk guruhi	Risklar	Risklarning ta'sir darajasi (%)			
		Ta'sir darajasi juda past bo'lgan risklar	Ta'sir darajasi kuchsiz risklar	Ta'sir darajasi o'rtacha risklar	Ta'sir darajasi kuchli risklar
1	...	R <sub>12</sub>	R <sub>13</sub>	R <sub>14</sub>	
	...	...	...	...	
...	...	...	...	...	
	...	...	...	...	
i	...	R <sub>i2</sub>	R <sub>i3</sub>	R <sub>i4</sub>	
	...	...	...	...	

Ekspert bahosi subyektiv xarakterga ega bo'lsada, ta'sir darajasi katta bo'lgan risklarni tanlab olish imkonini beradi. Bundan foydalangan holda keyingi bosqichda tanlab olingan, ta'sir darajasi katta bo'lgan risklarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashni (prognozlashni) korrelyatsion-regression tahlillar yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun ta'sir darajasi katta bo'lgan risklarning bir necha yillik ko'rsatkichlaridan va maxsus kompyuter dasturlari paketidan foydalaniladi.

**Risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash usullari.** Tadbirkorlik faoliyatidagi risklar faoliyat davomida moddiy va moliyaviy yo'qotishning kelish ehtimolini matematik ko'rinishda ifodalanishi mumkin.

Risklarning miqdori yoki uning darajasi 2 mezon asosida o'lchanadi:

1. O'rtacha kutish miqdori.

<sup>34</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## 2. Kutilayotgan natijaning tebranishi.

O'rtacha kutish miqdori – bu noaniq holatlar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarning miqdoriy ko'rsatkichidir. O'rtacha kutish miqdori mumkin bo'lgan barcha natijalarning o'rtachasi hisoblanib, bunda har bir natijaning ehtimoli uning chastotasi sifatida foydalaniladi. O'rtacha kutish miqdori kutilayotgan natijalarning o'rtachasini ifodalaydi. O'rtacha miqdor hodisalarning umumlashma sonli xarakteristikalarini berib u qaysi variantni qo'llash yoki qo'llamaslik to'g'risidagi qarorni qabul qilishga asos bo'la olmaydi. Oxirgi qarorni qabul qilish uchun bu ko'rsatkichlarni tebranishini aniqlash zarur. Ya'ni, kutilayotgan natijalarning tebranish miqdorini aniqlash kerak bo'ladi. Kutilayotgan natijalarning tebranishi kutilayotgan miqdorning o'rtacha miqdordan chetlanishini bildiradi. Buning uchun amaliyotda bir-biri bilan juda yaqin bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi: dispersiya va o'rtacha kvadratik chetlanish.

Dispersiya quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$G^2 = \frac{\sum (x - \bar{x})^2 n}{\sum n}, \quad (1.7)$$

bunda:  $G^2$  - dispersiya;

$x$  – kuzatilayotgan har bir hodisa uchun kutish miqdori;

$\bar{x}$  – o'rtacha kutish miqdori;

$n$  – kuzatuvlar soni.

O'rtacha kvadratik chetlanish quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$G = \sqrt{\frac{\sum (x - \bar{x})^2}{\sum n}} \quad (1.8)$$

Bunda:  $G$  - kvadratik chetlanish;

Chastotalar teng bo'lgan paytda bu ko'rsatkichlar quyidagiga teng bo'ladi:

$$G^2 = \frac{\sum (x - \bar{x})^2}{n} \quad (1.9)$$

O'rtacha kvadratik chetlanish variatsiyalovchi belgining bir xil o'lchovlarida aniqlanadi. Dispersiya va o'rtacha kvadratik tebranish absolyut tebranish o'lchovlaridir.

Tahlil qilish uchun odatda variatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi. Variatsiya koeffitsiyenti o'rtacha kvadratik chetlanishlarni o'rtacha arifmetik ko'rsatkichiga nisbati bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$V = \frac{G}{\bar{X}} \times 100, \quad (1.10)$$

Bunda:  $V$  – variatsiya koeffitsiyenti, %;

Variatsiya koeffitsiyenti bu nisbiy ko'rsatkichdir. Shuning uchun ham uning o'lchamiga o'rganilayotgan ko'rsatkichning absolyut miqdorlari ta'sir ko'rsatmaydi. Tadbirkorning moliyaviy riski, risk koeffitsiyenti yordamida o'lchanadi:

$$K_p = \frac{Y}{C}, \quad (1.11)$$

Bu yerda:  $Y$  – zararning maksimal miqdori, so'mda;  
 $C$  – xususiy moliyaviy resurslar hajmi, so'mda.

**Tadbirkorlikda investitsiya loyihalarini baholash.** Tadbirkorlik subyektlari (yoki tadbirkor) oldida yana bir muhim masala borki, bu ular amalga oshirmoqchi bo'lgan loyihalarni iqtisodiy jihatdan baholash orqali bu loyihalarni tadbiq etish yoki etmaslik to'g'risida qaror qabul qilishdan iborat. Bu masala bir qarashda murakkab emasdek tuyulsada ilmiy jihatdan o'rganilganlik darajasi yetarli emasligi tufayli hammabop usullar ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan tadbirkorlikda investitsiya loyihalarini iqtisodiy jihatdan baholashning ayrim tomonlariga to'xtalaylik.

Investitsiya loyihalarni hayotga tadbiq etishda avvalo uning hayotiy sikllari o'rganiladi va loyihaga iqtisodiy jihatdan baho beriladi. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Sof diskontlangan daromad
2. Daromadlilik indeksi.
3. Daromadlilikning ichki me'yori.

Sof diskontlangan daromad quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D_d = (R_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t} \quad (1.12)$$

bu yerda,

$R_t$  – investitsiya loyihasini amalga oshirishdan keladigan tushum (natija), ming so'mda.

$X_t$  – loyihani amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlar, ming so'mda.

$E$  – diskontlash koeffitsiyenti.

Loyihalarni iqtisodiy baholashdagi ikkinchi ko'rsatkich bu daromadlilik indeksidir. Daromadlilik indeksi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D = \frac{1}{K} \sum_{t=1}^T (R_t - 3_t) \frac{1}{(1+E)^t} \quad (1.13)$$

bunda,  $K$  - moliyalashtiriladigan mablag' miqdori.

Loyihalarni iqtisodiy baholashning yana bir ko'rsatkichi daromadlilikning ichki me'yoridir. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sum_{t=1}^T \frac{(R_t - 3_t)}{(1-E_n)^t} = \sum_{t=1}^T \frac{K_t}{(1-E_n)^t} \quad (1.14)$$

Yuqoridagi ko'rsatkichlar investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotlar natijasida tadbirkorlik risklarini baholash hamda ularni pasaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan usullarning amaliyotga tadbiri tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarish hajmini va olinadigan foyda miqdorini oshirishga xizmat qiladi.

**Investitsiyaviy loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarini riskka moyillik darajalari aniqlash.** Xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlari investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ma'lum risklarga duch kelishi mumkin. Risklar natijasida zarar hajmining katta bo'lmasligi uchun avvalo investitsiya loyihalarini baholash va xizmat turlarining riskka moyillik darajasini aniqlash mqsadga muvofiq. Yuqorida keltirilgan usulni rivojlantirgan holda xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiyaviy loyihalar riskini

baholashda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini aniqlaymiz. Buning uchun ekspert baholash usulidan foydalangan holda yuqorida keltirilgan xizmat ko'rsatish turlarining risklarga moyillik darjasini aniqlaymiz. Buning uchun avvalo har bir xizmat turining riskka moyillik darajasi ekspertlar tomonidan baholanadi (1.6-jadval). Bunda xizmat ko'rsatish turlarining risklarga moyilligini baholash me'zonlari: 1-2 – baho “**kuchsiz**” moyillikni, 3 – baho “**o'rtacha**” moyillikni va 4-5 – baho risklarga “**kuchli**” moyillikni bildiradi va har bir ekspert tomonidan belgilangan mezonlar asosida baholanadi

### 1.6-jadval

Xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiyaviy loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini baholash natijalari<sup>35</sup>

Risk guruhi	Risklar	Xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalari (%)		
		kuchsiz moyillik	o'rtacha moyillik,	kuchli moyillik
1	...	R <sub>12</sub>	R <sub>13</sub>	R <sub>14</sub>
	...	...	...	...
...	...	...	...	...
	...	...	...	...
i	...	R <sub>i2</sub>	R <sub>i3</sub>	R <sub>i4</sub>
	...	...	...	...

Xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiya loyihalar riskini baholash jarayonida xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini aniqlashda (1.2) formuladan foydalanamiz.

Xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiya loyihalar riskini baholash natijasidan foydalanib, xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalari guruhlanadi.

<sup>35</sup>Har bir xizmat ko'rsatish turi uchun alohida-alohida ekspertlar tomonidan yuqorida o'rnatilgan mezon asosida baholanadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Tadbirkorlik risklarini pasaytirish usullari.** Tadbirkorlikda risklar turli usullar yordamida hal etiladi. Ularning asosiylariga quyidagilar kiradi: riskdan qochish, ushlab qolish, birovga berish, uning darajasini pasaytirish. Riskdan qochishning eng oddiy yo'li bu u keltiradigan tadbirlardan chetlanishdir. Bir tomondan bu tadbirkorning foydadan qochishi bilan barobardir. Riskni ushlab qolish deganda, riskni investorga yuklash tushuniladi. Bunda barcha javobgarlik investorda bo'ladi. Riskni birovga berish deganda, investor tomonidan barcha javobgarlikni boshqa birovga berish tushuniladi. Ya'ni, masalan sug'urta kompaniyasiga.

Tadbirkorning moliyaviy riskini kamaytirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Diversifikatsiya;
2. Tanlash va natijalar to'g'risida qo'shimcha axborotlarga erishish;
3. Limitlash;
4. Sug'urtalash.

Diversifikatsiya bu investitsiya qilinadigan mablag'larning bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan obyektlarga tarqatish jarayonidir. Odatda bu usuldan investitsiya fondlarida keng foydalaniladi. Diversifikatsiya riskning ma'lum bir qismidan qochish imkonini beradi.

Ba'zida investor natijalar aniq bo'lmagan hollarda qaror qabul qiladi va bu qarorlar chegaralangan axborotlarga asoslanadi. Tabiiyki, agar investorda to'liq axborot bo'lsa u yaxshiroq prognoz qiladi va riskni kamaytiradi. Bu holat axborotni tovarga aylantiradi. O'z o'rnida axborot qimmatbaho tovar hisoblanadi va investor buning uchun katta mablag' to'lashga tayyor.

Limitlash bu limit o'rnatish bo'lib xarajatlar, sotuvlar, kreditlar summalarining chegaralari o'rnatiladi. Limitlash risk darajasini pasaytirish vositasi bo'lib, banklar overdraft shartnomasini tuzishda, ssudalar berishda, xo'jalik subyektlarining tovarlarni kreditga sotishda (kredit kartachkalar bo'yicha), yo'l cheklari bo'yicha, investorlarning kapital quyilma miqdorini aniqlashda ishlatiladi.

Sug'urtalashning mohiyati shundaki, investor riskdan qochish maqsadida foydasining bir qismidan voz kechishiga tayyor. Bu usul keng tarqalgan usul hisoblanadi. Sug'urtalash bu iqtisodiy munosabatlarning asosiy turlaridan biridir va unda sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi bo'lishi majburiydir.

## **I BOB BO'YICHA XULOSALAR**

1. Ilmiy izlanishlar natijasida insonlarning iqtisodiy faoliyatida ko'plab qarorlarni qabul qilishida ochiqlik, ziddiyatlilik, stoxastiklik kabi subyektiv va obyektiv omillar ta'sir ko'rsatishi va bu ma'lum darajada riskka olib kelishi asoslab berildi.

2. Bozor munosabatlari sharoitida to'liq bo'lmagan axborot ochiqligi, qarama-qarshiliklarning mavjudligi, stoxastikligi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda risk ta'sirini hisobga olish zarurati asoslandi.

3. Risk – bu tadbirkorlikning ajralmas xusiyati ekanligi, uning rivojlanishini rag'batlantirish uchun texnik va texnologik yangiliklarni amaliyotga dadil tadbiriq etish zarurligi ko'rsatib berildi.

4. Uslubiy yondashuvga ko'ra “risk” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning raqobat sharoitida biznes jarayonlari ishtirokchilarining faoliyat natijalarini aniq bashorat qilish imkonini bermaydigan, ayni paytda biznesning rivojlanishini rag'batlantiradigan hodisa hamda tavakkalchilik – riskli harakat ekanligi nuqtai nazaridan takomillashtirildi.

5. Risklar tarkibi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlarini tizimlashtirish va tasniflash asosida muayyan makon va zamonda ularni vujudga keltiradigan omillarni hamda risklarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatish darajasini baholash usullari takomillashtirildi.

6. Tadbirkorlikda iqtisodiy risklarni pasaytirishning prognozlash usuli ushbu risklarning o'zgarish parametrlarini hisobga olgan holda takomillashtirildi.

7. Tadbirkorlikda investitsiya loyihalar riskini iqtisodiy baholash hamda xizmat turlarining riskka moyillik darajalarini ekspert baholash usuli asoslandi.




## **II BOB. XIZMATLAR SOHASI VA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR TAHLILI**

### **2.1-§. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi va tadbirkorlik faoliyati tahlili**

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotimizning barcha sohalari va tarmoqlarini izchil rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, davlatimiz tomonidan so'ngi yillarda yaratib berilayotgan imkoniyatlar natijasida xizmat ko'rsatish sohasi jadal rivojlanib, milliy iqtisodiyotimizning lokomotiv sohasiga aylanib bormoqda. Bunga mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi ortib borayotganligi yorqin misol bo'la oladi. Xususan, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlariga oid statistik ma'lumotlarga nazar tashlasak quyidagi tendensiyaga guvoh bo'lamiz. 2000-yil yakunlari bo'yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2001-yildan 2003-yilgacha mos ravishda 105,1 % , 103,3 % , 103,2 %ga teng bo'lib, 2000-yilga nisbatan pasayib borgan. 2004-yildan 2007-yilgacha bu ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, ya'ni bu o'sish ko'rsatkichlari yillarga mos ravishda 107,4 % , 107,6% , 107,8 % va 112,5 %ga teng bo'lgan. 2008 va 2009-yillarda avvalgi yillarga nisbatan o'sish surati pasayib borgan (112.3 %; 106,8 %), 2010-yilga kelib 2009-yilga nisbatan o'sish surati 0,4 %ga oshgan. Yalpi ichki mahsulotda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 2011-yildan boshlab avvalgi yillarga nisbatan pasayish tendensiyasi ro'y bergan bo'lib, 2012-yilda – 107,8 %ni, 2013-yilda – 106,8 %ni tashkil etgan. 2014 va 2015-yillarda o'sish suratlari qayd etilgan (mos ravishda yillar bo'yicha 107,4 % va 107,6 %ni tashkil etgan). 2016-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda yalpi ichki mahsulotda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi dinamikasi ko'rsatkichi tebranma xarakterga ega bo'lib, uning tebranish oralig'i 105,9 %dan 106 %ni tashkil etadi. 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 5,3 %ga kamaygan.

Shuningdek, ushbu statistik ma'lumotlarda keltirib o'tilgan 2021-yil yakunlariga doir dastlabki hisob-kitoblarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'ati o'tgan 2020-yilga nisbatan 109,2 %ga<sup>36</sup> oshganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (2.1-rasm).



**2.1-rasm. 2000-2021-yillarda xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'atiga oid ko'rsatkichlar (o'tgan yilga nisbatan %da)**

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining hajmi va unda xizmat ko'rsatish sohasining ulushiga oid ko'rsatkichlar holatiga ko'ra, 2000-yil yakunlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasining mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmidagi ulushi 1210,9 (mlrd.so'm)ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatgich 2010-yilda 31463,8 (mlrd.so'm)ni, 2020-yilda 215.815,5 (mlrd.so'm)ni, o'tgan 2021-yil yakunlariga oid dastlabki ma'lumotlari bo'yicha 262496,3 (mlrd.so'm)ni<sup>37</sup> tashkil etmoqda.

Ushbu statistika ma'lumotlari asosida xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi oxirgi yillarda yuzaga kelgan xalqaro pandemiya (Covid-19) holatiga qaramasdan sezilarli darajada oshib borganligini kuzatishimiz mumkin (2.1-jadval).

<sup>36</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti. <https://stat.uz>

<sup>37</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti. <https://stat.uz>

## 2.1-jadval

2000-2021-yillarda O'zbekistonda YaIM, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va uning YaIM dagi ulushi ko'rsatkichlarining dinamikasi<sup>38</sup>

Yillar	YaIM hajmi, mlrd. so'mda	Qaralayotgan yillar bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Xizmatlarning YaIMdagi ulushi, foizda
2000	3 255,60	1 210,90	37,19
2001	4 925,30	1 882,20	38,21
2002	7 450,20	2 823,50	37,90
2003	9 844,00	3 684,40	37,43
2004	12 261,00	4 558,90	37,18
2005	15 923,40	5 898,50	37,04
2006	21 124,90	8 018,70	37,96
2007	28 190,00	11 208,10	39,76
2008	38 969,80	16 115,60	41,35
2009	49 375,60	20 424,60	41,37
2010	78 936,60	31 463,80	39,86
2011	103 323,60	40 529,10	39,23
2012	127 590,20	50 254,70	39,39
2013	153 311,30	62 099,20	40,51
2014	186 829,50	73 600,90	39,39
2015	221 360,90	86 674,50	39,16
2016	255 421,90	99 665,50	39,02
2017	317 476,40	116 901,50	36,82
2018	424 728,70	147 587,20	34,75
2019	529 391,40	187 123,20	35,35
2020	602 193,00	215 815,50	35,84
2021	734 587,70	262 496,30	35,73

Shu o'rinda, 2019-2021-yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida ko'rsatilgan xizmatlarning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi hajmiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning yildan yilga oshib borganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (2.2-jadval).

<sup>38</sup>Jadval <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

## 2.2-jadval.

### O'zbekiston respublikasi va uning ma'muriy hududlarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi dinamikasi<sup>39</sup>

(yillar bo'yicha yanvar-noyabr holatiga, ming so'm)

Hududlar \ Yillar	2019	2020	2021
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	2 695,00	3 077,80	3 917,00
<b>Andijon viloyati</b>	2 865,50	3 250,30	4 265,00
<b>Buxoro viloyati</b>	3 871,10	4548,10	5 831,70
<b>Jizzax viloyati</b>	2 778,10	3 211,40	4 106,10
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2 449,60	2 794,00	3 610,80
<b>Navoiy viloyati</b>	4 462,60	5 225,80	6 561,00
<b>Namangan viloyati</b>	2 421,50	2 630,30	3 695,60
<b>Samarqand viloyati</b>	2 908,60	3 320,20	4 273,40
<b>Surxondaryo viloyati</b>	2 598,70	2 706,70	3 478,90
<b>Sirdaryo viloyati</b>	2 846,90	3 446,00	4 467,40
<b>Toshkent viloyati</b>	4 195,20	5 067,70	6 689,60
<b>Farg'ona viloyati</b>	2 752,90	3 209,90	4 247,60
<b>Xorazm viloyati</b>	2 805,20	3 166,30	4 017,00
<b>Toshkent shahri</b>	23 356,90	27 696,70	33 489,10

So'ngi uch yilda ko'rsatilgan xizmatlarning aholi jon boshiga to'g'ri kelish hajmi o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasida 3229,93 (ming so'm)ni, Andijon viloyatida 3460,26 (ming so'm)ni, Buxoro viloyatida 4750,3 (ming so'm)ni, Jizzax viloyatida 3365,2 (ming so'm)ni, Qashqadaryo viloyatida 2951,46 (ming so'm)ni, Navoiy viloyatida 5416,46 (ming so'm)ni, Namangan viloyatida 2915,8 (ming so'm)ni, Samarqand viloyatida 3500,73 (ming so'm)ni, Surxondaryo viloyatida 2928,1 (ming so'm)ni, Sirdaryo viloyatida 3586,76 (ming so'm)ni, Toshkent viloyatida 5371,5 (ming so'm)ni, Farg'ona viloyatida 3403,46 (ming so'm)ni, Xorazm viloyatida 3329,5 (ming so'm)ni, Toshkent shahrida 28180,9 (ming so'm)ni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi tahlilimizni davom ettirib, respublikamizda ko'rsatilgan xizmatlar hajmining umumiy hamda iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha o'sish dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda quyidagi holatni

<sup>39</sup>Jadval <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

## 2.3-jadval


O'zbekistonda ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining turlar bo'yicha o'sish sur'ati<sup>40</sup>

(o'tgan yilga nisbatan % da)

№	Xizmat ko'rsatish turlari nomi	Yillar										
		2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
1.	Axborot va aloqa xizmatlari	130,5	141,4	123,6	121,2	127,6	116	114,6	121,3	115,9	108,3	123,8
2.	Moliyaviy xizmatlari	116,4	115,4	114,5	131,5	132,1	130,6	119,8	136,5	121,5	147	125,6
3.	Transport xizmatlari	109,8	112,5	109,4	108	104,6	104,3	107,8	109,9	104,5	106,7	91,4
4.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	127,1	123,5	116	119,1	116,5	119	121,1	112,1	107	107,3	80,3
5.	Savdo xizmatlari	121,5	115,7	115,4	113,1	115,7	118,5	120,5	100,3	104,9	107,4	103,8
6.	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	128,4	122	123,6	116,8	119,9	118,5	117,5	106,6	107,9	104,7	90
7.	Ta'lim sohasi xizmatlari	90,1	105	105,2	105,2	109,1	111,2	107,8	125,6	110,5	109,5	101
8.	Sog'liqni saqlash sohasi xizmatlari	121,2	133,2	138,8	130,9	116,3	117,2	122,2	116,9	113,4	114,7	94,8
9.	Ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	116	117,9	121,2	119,2	119,1	113,8	117,6	102,1	110,4	98,3	98,4
10.	Kompyuter, shaxsiy foydalanish byumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	115,3	119,5	120,7	117,5	116,3	116,3	115,6	102,6	104,2	107,1	94,5
11.	Shaxsiy xizmatlar	119	124,9	124,5	121,7	121,4	107	113,8	100,7	102,2	105,4	94,7
12.	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	108	118,8	131	115,8	107,4	106,6	115,3	124,7	118,1	115,5	93,3
13.	Boshqa xizmatlar	121	123,9	120,7	113,6	117	113,5	114,9	111,8	121,2	116,3	99,7
<b>Jami</b>		115,8	117,2	114,7	114,4	114,2	113,4	114,7	110,7	108,9	113,2	103

<sup>40</sup> Jadval <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

kuzatishimiz mumkin. Jumladan, 2010-2020-yillarga oid statistika ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2010-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davirda o'rtacha 112,7 %ga o'sish sur'atini qayd etgan. Shuningdek, tahlil qilinayotgan davrda axborot va aloqa xizmatlari 122,2%ga, moliyaviy xizmatlar 126,4 %ga, transport xizmatlari 106,2%ga, yashash va ovqatlanish xizmatlari 113,5%ga, savdo xizmatlari 112,4%ga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 114,1%ga, ta'lim sohasi xizmatlari 107,2%ga, sog'liqni saqlash sohasi xizmatlari 119,9%ga, ijara va lizing bo'yicha xizmatlar 112,1%ga, kompyuter, shaxsiy foydalanish byumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 111,7%ga, shaxsiy xizmatlar 112,3%ga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 114%ga hamda boshqa xizmatlar 112,7%ga o'rtacha o'sish sur'atini tashkil etgan (2.3-jadval).



## 2.2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasining tashqi savdo aylanmasidagi ko'rsatkichlari (umumiy hajmga nisbatan %da)

Mamlakatimizning 2000-2020-yillarga oid tashqi savdo aylanmasida xizmatlar eksporti ulushi eksport tarkibining umumiy hajmiga nisbatan 15,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, xizmatlar importi ulushi import tarkibining umumiy

xajmiga nisbatan 8,1 %ni qayd etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 2000-2020-yillarda respublikamizning xizmatlar ekisporti, xizmatlar importiga qaraganda 7,6 %ga ko'piroqni tashkil etgan (2.2-rasm)<sup>41</sup>.

Shu o'rinda, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga oid statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, umumiy xo'jalik subyektlari tarkibida xizmat ko'rsatish korxonalarining ulushi sezilarli darajada ortib borganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (2.4-jadval). Xususan, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2018-yilda 285531 tani tashkil etgan bo'lsa, ushbu xo'jalik subyektlarining 104564 tasi xizmat ko'rsatish korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi, jumladan, savdo korxonalarini 63199 tani, tashish va saqlash bo'yicha korxonalar 11996 tani, yashash va ovqatlanish korxonalarini 17126 tani, axborot va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar 6403 tani, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar 5840 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda umumiy korxonalar va tashkilotlar soni 323517 tani va shundan 117797 tasi xizmat ko'rsatish subyektlari hisobiga to'g'ri kelgan, bundan savdo korxonalarini 70902 tani, tashish va saqlash bo'yicha korxonalar 13330 tani, yashash va ovqatlanish korxonalarini 19812 tani, axborot va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar 6975 tani, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar 6778 tani tashkil etgan. 2020-yil yanvar holatiga ko'ra, umumiy korxonalar va tashkilotlar soni 398133 tani tashkil etgan va ushbu subyektlarning 157881 tasi xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borgan, shundan, 101081 tasi savdo faoliyatida, 15360 tasi tashish va saqlashda, 25636 tasi yashash va ovqatlanish sektorida, 7901 tasi axborot va aloqada, 7903 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda faoliyat yuritgan. 2021-yilning yanvar holatiga ko'ra, umumiy korxonalar va tashkilotlar soni 475197 tani tashkil etgan va undan 198266 tasi xizmat ko'rsatish korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi. Shundan, savdo faoliyatida 132192 ta, tashish va saqlashda 17301 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha 30111 ta, axborot va aloqada 9517 ta,

---

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti. <https://stat.uz>

## 2.4-jadval.

**Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni<sup>42</sup>**

<b>Tarmoqlar</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
<b>Umumiy</b>	104564	117797	157881	198266	229462
Shu jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar	20148	59590	46660	52138	-
<b>Savdo</b>	63199	70902	101081	132192	157129
Shu jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar	11719	36323	35225	38467	-
<b>Tashish va saqlash</b>	11996	13330	15360	17301	18251
Shu jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar	2115	2956	2399	2646	-
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	17126	19812	25636	30111	33104
Shu jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar	3900	7241	5639	6633	-
<b>Axborot va aloqa</b>	6403	6975	7901	9517	10587
Shu jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar	1236	1671	1922	2544	-
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar</b>	5840	6778	7903	9145	10391
Shu jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar	1178	1399	1475	1848	-

<sup>42</sup>Jadval <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 9145 ta xo'jalik subyekti faoliyat olib borgan. Shuningdek, 2022-yil yanvar holatiga iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar jami 528929 tani tashkil etayotgan bo'lsa, ushbu korxonalarining 229462 tasi xizmat ko'rsatish sohasiga oid korxonalar va tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, ushbu xo'jalik subyektlarining 157129 tasi savdo, 18251 tasi tashish va saqlash xizmatlari bo'yicha, 33104 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha, 10587 tasi axborot va aloqa sohasida hamda 10391 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha o'z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu statistik ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar so'ngi besh yilda o'rtacha 161594 taga ko'paygan.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha tarmoqlar va sohalarning jadal rivojlanishi ayni tarmoq yoki sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar (tashkilot)larga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ta'kidlab o'tishimiz lozimki, bugungi kunda o'zining xo'jalik faoliyatini olib borayotgan korxonalar tarkibida, tadbirkorlikning boshqa shakllariga qaraganda ko'plab afzalliklariga egaligi sababli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) subyektlari faoliyat yuritayotgan sohasi yoki tarmog'ining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga, "drayveri"ga aylanib bormoqda. Bunga birgina xizmat ko'rsatish sohasining o'zida KBXT subyektlarining soni yildan yilga ortib, ularning xizmat ko'rsatish sohasidagi hajmi sezilarli darajada oshib borayotganligi yorqin misol bo'la oladi. Xususan, KBXTning xizmat ko'rsatish sohasidagi hajmi 2010-yilda 15214,1 (mlrd.so'm)ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2015-yilda 47269,6 (mlrd.so'm)ni, 2020-yilda 114052,7 (mlrd.so'm)ni hamda 2021-yil yakunlari bo'yicha olingan dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 144812,7 (mlrd.so'm)<sup>43</sup>ni tashkil etganligini quyida ko'rib o'tishimiz mumkin (2.3-rasm).

Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki KBXTning xizmat ko'rsatish sohasidagi hajmi 2010–2021-yillar oralig'ida o'rtacha 62953,61 (mlrd. so'm)ni tashkil etgan. O'z o'zida, xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik

---

<sup>43</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti. <https://stat.uz>

subyektlarining holatiga oid statistika ma'lumolarini<sup>44</sup> tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi holatga guvoh bo'lishimiz mumkin (2.5-jadval).



**2.3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohasidagi hajmi (mlrd.so'mda).**

2018-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy soni 102041 tani tashkil etgan bo'lsa, ushbu subyektlarning 62714 tasi savdo xizmatlarida, 11779 tasi tashish va saqlash tarmog'ida, 16964 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatishda, 6167 tasi axborot va aloqa tarmog'ida, 4417 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat olib borgan. 2022-yilning hisobot davrida esa kichik tadbirkorlik subyektlarining soni, 2018-yilga qaraganda 124552 ta ortgan holda 226593 tani tashkil etmoqda. Shundan, 156539 tasi savdo sohasida, 18045 tasi tashish va saqlashda, 32948 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatishda, 10247 tasi axborot va aloqa tarmog'ida, 8814 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tarmog'ida faoliyat olib bormoqda. Ushbu statistika ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, so'nggi besh yilda xizmat ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari soni sezilarli darajada ortgan. 2022-yilda 2018-yilga qaraganda savdo sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari soni 93825 taga, tashish va saqlash sohasidagi subyektlar soni 6266 taga, yashash va ovqatlanish bo'yicha

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti. <https://stat.uz>

## 2.5-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari soni va ularning holati<sup>45</sup>

(1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tarmoqlar	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
Savdo	Faoliyat ko'rsatayotganlar	62714	70457	100573	131597	156539
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar	4151	4147	5752	7948	8921
	Ro'yxatdan o'tganlar	66865	74604	106325	139545	165460
	Yangi tashkil etilganlar*	11713	36300	35213	38459	-
	Faoliyati tugatilganlar*	4624	4647	3143	14649	-
Tashish va saqlash	Faoliyat ko'rsatayotganlar	11779	13121	15157	17056	18045
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar	508	515	724	897	822
	Ro'yxatdan o'tganlar	12287	13636	15881	17953	18867
	Yangi tashkil etilganlar*	2107	2953	2397	2642	-
	Faoliyati tugatilganlar*	748	670	406	1631	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Faoliyat ko'rsatayotganlar	16964	19656	25461	29947	32948
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar	1073	1236	1782	2376	2313
	Ro'yxatdan o'tganlar	18037	20892	27243	32323	35261
	Yangi tashkil etilganlar*	3891	7233	5637	6621	-
	Faoliyati tugatilganlar*	1173	1175	648	3769	-
Axborot va aloqa	Faoliyat ko'rsatayotganlar	6167	6738	7621	9221	10247
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar	351	392	538	656	577
	Ro'yxatdan o'tganlar	6518	7130	8159	9877	10824
	Yangi tashkil etilganlar*	1228	1629	1917	2521	-
	Faoliyati tugatilganlar*	422	388	163	1278	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	Faoliyat ko'rsatayotganlar	4417	5364	6370	7588	8814
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar	97	113	153	225	273
	Ro'yxatdan o'tganlar	4514	5477	6523	7813	9087
	Yangi tashkil etilganlar*	1154	1269	1450	1760	-
	Faoliyati tugatilganlari*	134	167	114	445	-

\* yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

<sup>45</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmat ko'rsatish sohasidagi subyektlar soni 15984 taga, axborot va aloqa sohasidagi subyektlar soni 4080 taga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi subyektlar soni 4397 taga ko'paygan. Shuningdek, 2018-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari jami 6.180 tani tashkil etgan bo'lsa, ayni vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyatini boshlash uchun ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 108221 tani tashkil etgan. 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 12906 tani, faoliyatini boshlash uchun ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 239499 tani tashkil etmoqda. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2018-yilning yanvar-dekabr oylari oralig'ida 20093 tani tashkil etgan va ushbu davrda faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga qaraganda 12992 taga ortiqdir. 2021-yilning yanvar-dekabr oylari oralig'ida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, ayni davrda faoliyati yakunlagan subyektlarga qaraganda 30231 taga ortiq bo'lgani holda 52003 tani tashkil etgan. Ushbu statistika ma'lumotlari asosida aytib o'tishimiz mumkinki, 2021-yilda yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari 2018-yilga qaraganda 31910 taga ortiqdir. Shu bilan bir o'rinda, bu 2018–2021-yillar oralig'ida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga qaraganda 17239 taga ko'pni tashkil etadi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarini, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirishga va buning natijasida aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan.

## **2.2-§. Xizmat ko'rsatish subyektlarida risklarni vujudga keltiradigan omillarni tahlil qilish va baholash**

Tadqiqotlarimizning nazariy qismiga bag'ishlangan I bobida risklar tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi sifatida unga duch kelish tabiiy hol

ekanligi asoslab berilgan edi. Shu nuqtai nazardan avvalo uni keltirib chiqaradigan omillarni va shart-sharoitlarni o'rganish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu ular faoliyatining rivojlanishi uchun aniq strategiyani belgilashda muhim omil hisoblanadi. Bu o'rinda risklarni vujudga keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash muhim hisoblanadi.

**Risklarni vujudga keltiruvchi omillarning ta'sir darajasini aniqlashning ekspert usuli.** Masalaning murakkabligi shundaki, uni baholash uchun statistik ma'lumotlar mavjud emas. Bu holatni e'tiborga olib dissertatsiya ishimizning 1.3 bandida masalaning nazariy asoslarini yoritgan edik. Unga ko'ra risklar 3 ta guruhga ajratilib, ularning asosiy xususiyatlari keltirilgan edi. Xuddi ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, ularni baholaymiz. Omillarning risklarni vujudga keltirishdagi ta'sir darajasini belgilovchi ekspertlar baholashlarining boshlang'ich natijalari quyidagicha (2.6-jadval):

Bunda ekspertlar sifatida Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining rahbarlari va mas'ul xodimlari (78 nafar), ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar (27 nafar) ishtirok etishdi.

Shundan so'ng risklarni vujudga keltiradigan omillarning ta'sir darajasini aniqlashda dissertatsiya ishimizning 2.2 bandida keltirilgan (1.1) formuladan foydalanib, omillarning risklarni vujudga keltirishdagi umumiy ta'sirini aniqlaymiz va uni 2.7-jadvalga keltirib yozamiz.

2.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar so'rov o'tkazilgan 105 nafar ekspertdan necha foizi «kuchli», «o'rtacha» va «kuchsiz» ta'sir ko'rsatuvchi omillarga baho berganligini ko'rsatadi. Ekspert so'rov natijalaridan ko'rinib turibdiki, risklarni vujudga keltirishda quyidagi omillar: risklarni baholash me'zonlarining mavjud emasligi ( $K_{ij} = 0,95$ ); riskni baholashda aniq bir nuqtai nazar yo'qligining baholash darajasiga ta'siri ( $K_{ij} = 0,85$ ); strategiya va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida izchillik yo'qligining risklarni baholashdagi ahamiyati ( $K_{ij} = 0,78$ ); fors-mojor holatlarning (masalan: tabiiy ofatlar, epidemiya, mamlakat ichidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy holatning o'zgarishi) risklarni baholashga ta'sir qilish darajasi ( $K_{ij} = 0,73$ ); risklarni

**Risklarni vujudga keltiradigan shart-sharoitlar va omillarning ta'sir ko'rsatish darajasini baholash bo'yicha o'tkazilgan boshlang'ich ekspert so'rov natijalari<sup>46</sup>**

№	Risklarning vujudga kelishida ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Ekspertlar soni	Ekspert bahosi				
			1	2	3	4	5
1.	Risk deganda faqat xatarni tushunasizmi?	<b>105</b>	23	28	29	10	15
2.	Tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishning sifatli emasligi		10	17	34	27	17
3.	Strategiya va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida izchillik yo'qligi		5	10	12	51	27
4.	Kelajakda yuzaga keladigan risklardan ko'ra, hozirgi yoki o'tgan davrdagi risklarga ko'proq e'tibor qaratish		25	22	27	16	15
5.	Riskni baholash murakkabligi bilan risk ro'y bergan holatning mos kelmaslik darajasi		19	26	20	21	19
6.	Riskni baholashda aniq bir nuqtai nazar yo'qligi		0	2	18	33	52
7.	Risklarni baholash me'zonlarining mavjud emasligi		0	0	10	40	55
8.	Asosiy risklarni aniqlashda yuqori darajadagi rahbariyat bilan nomuvofiqliklar		28	39	25	10	3
9.	Faoliyatni tahlil qilishda va ustuvorlikni aniqlashda noto'g'ri usullardan foydalanish		4	6	42	33	20
10.	Risklarni aniqlashdan boshlab, ularni minimallashtirish to'g'risida qaror qabul qilinguncha bo'lgan muddat kattaligi		4	8	28	31	34
11.	Fors-mojor holatlar		2	5	25	43	30

aniqlashdan boshlab, ularni minimallashtirish to'g'risida qaror qabul qilinguncha bo'lgan muddat kattaligining obyektiv baholashga ta'siri ( $K_{ij} = 0,65$ ); faoliyatni tahlil qilishda va ustuvorlikni aniqlashda noto'g'ri usullardan foydalanishning risklarni baholashga ta'siri ( $K_{ij} = 0,53$ ) va boshqarishda bu omillarga katta e'tibor qaratishi zarur degan xulosaga asos bo'ladi. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishning sifatli emasligi ( $K_{ij}=0,34$ ), asosiy risklarni aniqlashda yuqori darajadagi rahbariyat bilan nomuvofiqliklar ( $K_{ij}=0,25$ ) kabi omillarni ham nazardan chetda qoldirmaslik zarur.

<sup>46</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Omllarning risklarni vujudga keltirishdagi ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun ekspert so'rov natijalari<sup>47</sup>**

№	Omllar	Omllarning risklarni vujudga keltirishdagi ahamiyatlilik darajasi ifodalovchi koeffitsiyent, $(K_{ij}), 0 \leq K_{ij} \leq 1$				
		$K_{1j}$	$K_{2j}$	$K_{3j}$	$K_{4j}$	$K_{5j}$
1.	Risk deganda faqat xatarni tushunasizmi?	0,22	0,27	0,28	0,10	0,14
2.	Tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishning sifatli emasligi	0,10	0,16	0,32	0,26	0,16
3.	Strategiya va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida izchillik yo'qligining risklarni vujudga kelishdagi ahamiyati	0,05	0,10	0,11	0,49	0,26
4.	Kelajakda yuzaga keladigan risklardan ko'ra, hozirgi yoki o'tgan davrdagi risklarga ko'proq e'tibor qaratishning risklarni baholash jarayoniga ta'siri	0,24	0,21	0,26	0,15	0,14
5.	Riskni baholash murakkabligi bilan risk ro'y bergan holatning mos kelmaslik darajasi	0,18	0,25	0,19	0,20	0,18
6.	Riskni baholashda aniq bir nuqtai nazar yo'qligi uni baholash darajasiga ta'siri	0,00	0,02	0,17	0,31	0,50
7.	Risklarni baholash me'zonlarining mavjud emasligi, ularni obyektiv baholash darajasiga ta'siri	0,00	0,00	0,10	0,38	0,52
8.	Asosiy risklarni aniqlashda yuqori darajadagi rahbariyat bilan nomuvofiqliklarning risklarni obyektiv baholashga ta'siri	0,27	0,37	0,24	0,10	0,03
9.	Faoliyatni tahlil qilishda va ustuvorlikni aniqlashda noto'g'ri usullardan foydalanishning risklarni baholashga ta'siri	0,04	0,06	0,40	0,31	0,19
10.	Risklarni aniqlashdan boshlab, ularni minimallashtirish to'g'risida qaror qabul qilinguncha bo'lgan muddat kattaligining obyektiv baholashga ta'siri	0,04	0,08	0,27	0,30	0,32
11.	Fors-mojor holatlarning (masalan: tabiiy ofatlar, epidemiya, mamlakat ichidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy holatning o'zgarishi) risklarni baholashga ta'sir qilish darajasi	0,02	0,05	0,24	0,41	0,29

<sup>47</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda risklarni vujudga keltirishda ahamiyatli bo'lgan omillar va shart-sharoitlarning ta'sir darajasini kamaytirish bo'yicha tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Shu maqsadda bu dasturni ishlab chiqishda quyidagilarga amal qilish zarur bo'ladi. Birinchidan, ekspert usuli yordamida aniqlangan omillarning ta'sir ko'rsatish darajasiga binoan ularning tartibini belgilaymiz va ularning har biri uchun amalga oshiriladigan ishlarning taqvim rejasini ishlab chiqamiz (2.8-jadval). Namunaviy taqvim rejada risklarni vujudga keltirib chiqaradigan har bir omilga uning ta'sir darajasini kamaytirish maqsadida aniq tadbirlar belgilanadi va uni amalga oshirish muddatlari hamda ijrochilar ko'rsatiladi. Bunda tadbirlar maxsus operativ guruhlar, ijodkor xodimlar, marketing bo'limi, rejalashtirish bo'limi, ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin. Taqvim rejada uning muddatlari yanada aniqlashtirilishi mumkin. Ya'ni har bir tadbirning bajarilishi uning xususiyati va xarakterli belgilariga qarab har bir oy dekadasida yoki oy kunlari bo'yicha grafik asosida amalga oshirilishi mumkin. Taqvim rejaga asosan amalga oshiriladigan tadbirlar tadbirkorlik subyektlarida risklarni vujudga keltiruvchi omillarning ta'sir kuchini pasaytirish imkonini beradi. Buning natijasida tadbirkorlik subyekti yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Risklarni baholashning taklif qilinayotgan usuli.** Risklarni baholash murakkabligi ular to'g'risidagi ma'lumotlarning yo'qligi yoki to'liq emasligi bilan belgilanadi. Ko'pchilik holatlarda ularning kutilmagan holda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa va holatlarni prognoz qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning uchun avvalo ularning ta'sir darajasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan risklarning tasnifi asosida ularning ta'sir darajasini ekspert baholari yordamida aniqlaymiz. Bunda ham risklarni vujudga keltiradigan omillarni baholashda qatnashgan ekspertlar guruhi qatnashadi.

Birinchi va ikkinchi guruh risklarining kelib chiqishi **mutloq mavhumligini** e'tiborga olgan holda tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik faoliyatidagi risklarning ta'sirini baholaymiz. Baholash uslubiyati va mezonlari dissertatsiya ishimizning 1.3 bandida keltirilgan.



**Risklarni vujudga keltirishda kuchli ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajasini pasaytirish bo'yicha  
namunaviy dasturiy taqvim reja<sup>48</sup>**

№	Risklarni vujudga keltiruvchi omillar	Omillarning ta'sir darajasini pasaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar	Yil kvartallari				Ijrochi
			I	II	III	IV	
1	Risklarni baholash me'zonlarining mavjud emasligi	Kuzatuvlar va ishlab chiqarish tajribalariga tayangan holda risklarni baholash me'zonlarini ishlab chiqish	+				Rahbariyat bilan maxsus guruh
2	Riskni baholashda aniq bir nuqtai nazar yo'qligi	Ilmiy tadqiqotlar yordamida risklarni baholashning progressiv usullarini ishlab chiqish va undan foydalanish	+				Rahbariyat, ijodkor xodimlar guruhi va ilmiy tadqiqot markazlari bilan birga
3	Strategiya va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida izchillik yo'qligining risklarni vujudga kelishidagi ahamiyati	Tadbirkorlik faoliyatida muntazam marketing tadqiqotlari yordamida bozorni o'rganish orqali strategiyani ishlab chiqish va shu asosda faoliyat yuritish	+	+	+	+	Rahbariyat va marketing bo'limi
4	Fors-mojor holatlarning (masalan: tabiiy ofatlar, epidemiya, mamlakat ichidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy holatning o'zgarishi) risklarni baholashga ta'sir qilish darajasi	Fors-mojor holatlarining kelib chiqish shart-sharoitlarini oldindan o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borish va uning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun tadbirlar ishlab chiqish	+	+	+	+	Rahbariyat va maxsus guruhlar
5	Risklarni aniqlashdan boshlab, ularni minimallashtirish to'g'risida qaror qabul qilinguncha bo'lgan muddat kattaligining obyektiv baholashga ta'siri	Risklar aniqlangandan boshlab maxsus guruhlar tashkil etib tezkor rejalar va harakatlarni amalga oshirish orqali risk muddatini qisqartirish	+	+	+	+	Rahbariyat va maxsus operativ guruh
6	Faoliyatni tahlil qilishda va ustuvorlikni aniqlashda noto'g'ri usullardan foydalanishning risklarni baholashga ta'siri	Obyektiv shart-sharoitlar va haqiqiy ma'lumotlardan va ilmiy asoslangan tahlil qilish va prognozlash usullaridan foydalanish.	+				Rahbariyat va ijodkor xodimlar guruhi
7	Tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishning sifatli emasligi	Kelgusi davr uchun reja ko'rsatkichlarini erishilgan natijalarga emas balki ilmiy asoslangan prognozlash usullaridan foydalanish	+				Rahbariyat va rejalashtirish bo'limi
8	Asosiy risklarni aniqlashda yuqori darajadagi rahbariyat bilan nomuvofiqliklarning risklarni obyektiv baholashga ta'siri	Risklarni aniqlashda subyektiv rahbar fikrini emas, balki obyektiv shar-sharoitlar va holatlarni e'tiborga olish	+	+	+	+	Rahbariyat va barcha bo'limlar

<sup>48</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## 2.9-jadval

**Risklarning ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra o'tkazilgan ekspert so'rov natijalari**

Risk guruhi	Risklar	Ekspertlar soni	Ekspert bahosi				
			1	2	3	4	5
Xo'jalik faoliyatidagi risklar (3-guruh)	Mol-mulkning tasodifiy yo'qotilishi riski	105 nafar	45	30	15	0	15
	Mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk		0	5	15	38	47
	Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotish riski		0	0	19	41	45
	Narx-navo riski		0	0	27	35	43
	Marketing risk		15	28	25	20	17
	Mehnat unumdorligining pasayib ketish riski		2	13	20	31	39
	Valyuta riski		12	18	37	17	21
	Foiz riski		8	25	30	22	20
	Inflatsiya riski		0	10	21	33	41
	Investitsiya riski		15	31	14	30	15
	To'lov qobiliyatini yo'qotishdagi risk		12	18	30	21	24
	Transport riski		45	45	15	0	0

Bu jarayonni quyidagi 2.9-jadval yordamida amalga oshiramiz. Jadvalga ko'ra risklarning ta'sir darajasini baholash 1 dan 5 gacha bo'lib, uning ta'sir ko'rsatish bahosi to'g'risiga har bir ekspert tomonidan baholanadi. Bunda risklar 4 ta guruhga ajratilib, ularning baholash ko'rsatkichlari: 1-ta'sir darajasi juda past bo'lgan risklar, 2-ta'sir darajasi kuchsiz bo'lgan risklar, 3-ta'sir darajasi o'rtacha bo'lgan risklar va 4-5 kuchli ta'sir ko'rsatuvchi risklarni bildiradi. Avvalo ekspertlar tomonidan har bir riskning tadbirkorlik subyekti faoliyatiga (foydasi yoki daromadiga) ta'sir ko'rsatish darajasini ifodalovchi bahosini qo'yib chiqamiz va barcha ekspertlar tomonidan berilgan bahoni umumlashtiramiz, ya'ni har bir ekspert tomonidan har bir riskka nechtadan 1, 2, 3, 4 va 5 baholar qo'yganligini mos ravishda jadvalga kiritamiz. Bu so'rovnomada ishtirok etayotgan ekspertlar 105 nafarni tashkil etadi.

## Risklarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash jadvali

Risk guruhi	Risklar	Risklarning ahamiyatlilik darajasi				
		Riskning shartli belgisi	Ta' sir darajasi juda past risklar	Ta' sir darajasi kuchsiz risklar	Ta' sir darajasi o' rtacha risklar	Ta' sir darajasi kuchli risklar
Xo' jalik faoliyatidagi risklar	Mol-mulkning tasodifiy yo'qotilishi riski	$\alpha_1$	43	29	14	14
	Mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk	$\alpha_2$	0	5	14	81
	Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotish riski	$\alpha_3$	0	0	18	82
	Narx-navo riski	$\alpha_4$	0	0	26	74
	Marketing riski	$\alpha_5$	14	27	24	35
	Mehnat unumdorligining pasayib ketish riski	$\alpha_6$	2	12	19	67
	Valyuta riski	$\alpha_7$	11	17	35	36
	Foiz riski	$\alpha_8$	8	24	29	40
	Inflatsiya riski	$\alpha_9$	0	10	20	70
	Investitsiya riski	$\alpha_{10}$	14	30	13	43
	To'lov qobiliyatini yo'qotishdagi risk	$\alpha_{11}$	11	17	29	43
	Transport riski	$\alpha_{12}$	43	43	14	0

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, risklarning ahamiyatlilik darajasini aniqlaymiz. Bu har bir risk uchun ekspertlar tomonidan qo'yilgan baholar sonini (2.9-jadvalga qarang) ekspertlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Bunda risklarning ta'sir ko'rsatish darajasini 4 kategoryaga ajaratish maqsadga muvofiq, ya'ni darajasi juda past bo'lgan risklar; ta'sir darajasi kuchsiz bo'lgan risklar; ta'sir darajasi o'rtacha bo'lgan risklar; kuchli ta'sir ko'rsatuvchi risklar. Olingan natijalarni 2.10-jadvalga kiritamiz.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga risklarning ta'sir darajasini baholash ularning qaysi biriga ko'proq e'tibor qaratilishi zarurligi va ushbu risklarning ta'sir darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejasini tuzish imkonini beradi.

Ekspert xulosalari natijasida tuzilgan 2.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi ( $\alpha_2=81\%$ ), ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotishdagi ( $\alpha_3=82\%$ ), narx-navodagi ( $\alpha_4=74\%$ ), mehnat unumdorligining pasayib ketishidagi ( $\alpha_6=67\%$ ) va inflatsiya ( $\alpha_9=70\%$ ) risklarining ta'sir ko'rsatish darajasi eng yuqori ekan. Bu o'z navbatida tadbirkordan aynan shu risklarning ta'sir ko'rsatish darajasini pasaytirish bo'yicha ma'lum tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu tadbirlarni dissertatsiya ishimizning 3.2 bandida ko'rib chiqamiz.

### **2.3-§. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion tadbirkorlik holati va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar ko'lamini oshirish, raqobatbardosh tovar (xizmat)lar ishlab chiqarish va ekisport hajmini muttasil ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan va imkoniyati cheklangan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, xalq daromadlarini tadrijiy ravishda oshirib borish natijasida barqaror rivojlanishga erishish va farovon jamiyat qurishdan iboratdir.

Albatta, ushbu rejalarni tadbirkorlik faoliyati uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratmasdan turib amalga oshirish juda mushkil. Zero, yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlardek, milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishdagi «Yagona yo'limiz – tadbirkorlar sonini ko'paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish»<sup>49</sup>dir.

---


<sup>49</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 8-yanvar kuni bo'lib o'tgan «Davlat byudjet parametrlarini ijro etish va hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha joriy yilgi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan» videoselektor yig'ilishidagi nutqi. <https://president.uz>

O'z o'rinda, jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha taraqqiy etgan mamlakatlar tadbirkorlik faoliyatiga katta e'tibor berishi natijasida bugungi iqtisodiy yuksalishga erishganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu sababli, davlatimiz tomonidan mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab tadbirkorlik faoliyatiga milliy taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omili sifatida qaralib, sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati o'zining ko'lami, chegarasi, moliyaviy xarajatlari, ishchilarning soni nuqtai nazardan kichik, o'rta va katta biznes guruhlariga ajratilgan. Albatta, biznesning hajmiga qarab uning moliyaviy xarajatlari hamda risk darajalari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, hozirgi globallashuv jarayonida mamlakatimizning milliy taraqqiyotini ta'minlash uchun o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Negaki, o'rta va kichik biznes katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmaydi va shu sababli, moslashuvchan xarakterga ega bo'ladi. Ya'ni, ma'lum bir faoliyat turini boshqa bir faoliyat turiga o'zgartirish katta moliyaviy mablag'larni talab etmaydi. Shu bilan birga, risk darajasi ham yuqori bo'lmaydi.

Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu faoliyatning quyidagi uch bosqichda olib borilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin (2.4-rasm):

- tadbirkorlik g'oyasi;
- g'oyani loyihalashtirish;
- g'oyani amalga oshirish;



**2.4-rasm. Tadbirkorlikni amalga oshirish bosqichlari<sup>50</sup>**

**Birinchi bosqich,** tadbirkorlikning boshlang'ich g'oyasi dunyoga kelishi bilan ifodalanadi va ayni jarayonda faqatgina tadbirkor (jismoniy yoki yuridik shaxs ko'rinishida) ishtirok etadi. Shu o'rinda, aytib o'tish lozimki, tadbirkorlik g'oyalari asosan, ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, innovatsion xarakterdagi tadbirkorlik g'oyalari bo'lib, bunday g'oyalarga yangi kashfiyotlar va ularni ishlab chiqarishga tadbiriq qilish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni misol keltirish mumkin. Ikkinchisi, biron-bir ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish turini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalardir.

**Ikkinchi bosqich,** tadbirkor o'zi mustaqil holatda yoki konsalting xizmatlardan foydalangan holda g'oyasini loyihalashtiradigan jarayon bo'lib, ushbu jarayon uchun moliyaviy manba sifatida tadbirkorning xususiy mablag'i yoki ushbu jarayonga jalb etilgan investorlarning kapitali xizmat qilishi mumkin. Yaratilgan loyihalar g'oyani amalga oshirish uchun ham iqtisodiy asos bo'ladi.

**Uchinchi bosqich,** g'oyani amalga oshirish pog'onasi bo'lib, unda tadbirkor, investor va konsalting firmalar qatnashadi. Bunda tadbirkorning asosiy vazifasi g'oyani amalga oshirish jarayonidagi tashkiliy masalalarning borishini nazorat qilishdan iborat bo'lsa, investor, bu jarayonni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan

<sup>50</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

ta'minlash bilan shug'ullanadi. Konsalting firmalar esa texnik va texnologik jarayonlarni amalga oshirish bo'yicha maslahatlar berib boradi.

Shunday qilib, tadbirkorlikni amalga oshirish yo'llarini ko'rib chiqdik. Navbatdagi vazifa bugungi kunda tadbirkorlik g'oyasi muallifi qaysi turdagi tadbirkorlik faoliyatini tanlashi mumkin degan savolga javob berishdan iborat. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyati turlarini bugungi kunda quyidagi ikkita katta guruhga ajratish mumkin: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish. Albatta, barcha xo'jalik subyektlar o'z tadbirkorlik faoliyatlarini yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tarmog'ida amalga oshiradi. Lekin, bundan qat'iy nazar, ularning provard maqsadlari foyda olishga qaratilgandir. Negaki, Tadbirkorlik – fuqaroni yoki fuqarolarning mustaqil, tashabbusli faoliyati bo'lib, ushbu faoliyatni ular foyda olish maqsadida o'zining tavakkalchiligi va moddiy javobgarligi asosida amalga oshiradi.<sup>51</sup>

Shunga e'tibor qaratish lozimki, tadbirkorlarning foyda (xususan, katta foyda) olishga bo'lgan intilishi ular o'rtasida raqobat muhitini yuzaga keltiradi va ushbu holat ularning o'z mahsulot (xizmat)larini sifatli va raqobatbardosh qilib ishlab chiqarishga, buning uchun esa iste'molchilarning istaklarini o'rgangan holatda zamonaviy yangiliklarni joriy etishga undaydi. Xususan, so'ngi yillarda jahon miqiyosida tadbirkorlar tomonidan startaplar hamda innovatsion g'oyalarni tijoriylashtirish va yangi innovatsion loyihalarga bo'lgan qiziqishning ortishi tadbirkorlik faoliyatining ilm-fan bilan tobora integrasiyalashuviga zamin yaratdi. Buning natijasida, so'ngi yillarda innovatsion tadbirkorlik tushunchasi ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli, respublikamizdagi xo'jalik subyektleri o'z mahsulot (xizmat)larini raqobatbardoshligini ta'minlash uchun milliy ilm-fan markazlari ya'ni oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatishi va faol tadbirkor sifatida faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, «Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir,

---

<sup>51</sup>F.B.Abdukarimov, A.A.Bektemirov. Tadbirkorlik mohiyati, ahamiyati, samaradorligi ko'rsatkichlari. «Ilm nur fayz» MChJ. Samarqand -2014. 27 b.

eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart»<sup>52</sup>. Albatta, hozirgi kunda faol tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yurtimizda ijobiy qadamlar tashlanmoqda. Misol uchun, faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha bir qator qonun hamda qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi (O'RQ-630-son) Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018-yil 5-maydagi PQ-3697-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5583-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida»gi 832-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-noyabrdagi «UzVC» milliy venchur fondini tashkil etish to'g'risida»gi 684-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 545-son Qarori shular jumlasidandir.


Shu o'rinda, bizning fikrimizcha yuqorida keltirib o'tilgan qonun va qonun osti hujjatlari bilan birga, ushbu yo'nalishda davlatimiz tomonidan muntazam ravishda o'tkazib borilayotgan, davlat organlari, ishbilarmon doiralar, potensial sarmoyadorlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining o'zaro muloqot qilishlari uchun

---

<sup>52</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 28.12.2018. <https://xs.uz>



platforma yaratishga qaratilgan «InnoWeek» – innovatsion g’oyalari haftaligi, startap loyihalar tanlovlari, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda ilmiy ishlanmalar uchun grant tanlovlari, hududlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, istiqbolli innovatsion g’oyalarni aniqlash va qo’llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilayotgan «Innovatsion g’oyalari va ishlanmalar hududiy ko’rgazmasi»ni ham aytib o’tish lozim. Shuningdek, respublikamizda faol tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning ulushini kengaytirish, startap loyihalarni qo’llab-quvvatlash va aholi (xususan, yoshlar)ning biznes ko’nikmalarini oshirish maqsadida 2018-2021 yillar oralig’ida 8 ta texnopark, 1 ta biznes-inkubator, 1 ta biznes-akselerator, 1 ta kovorking markaz, 3 ta o’quv markaz va 2 ta innovatsion poligonlar<sup>53</sup> faoliyati yo’lga qo’yildi (2.5-rasm).



## 2.5 - rasm. Innovatsion tadbirkorlik muassasalari<sup>54</sup>

Shu bilan birga ilmiy tadqiqotchilar, tadbirkorlar va investorlarning o’zaro muloqot qilishlariga qulay platforma yaratish va buning natijasida «buyurtmachi-tadqiqotchi-investor» uzviyligini ta’minlash orqali ilm-fan va tadbirkorlik faoliyatining integrasiyasiga ko’maklashish hamda ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar va innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish ishlarini qo’llab-quvvatlash maqsadida ilmiy ishlanmalar va innovatsion g’oya (loyiha)lar portalini (<http://portal.spcenter.uz>) ishga tushirildi. Ushbu ilmiy ishlanmalar va innovatsion g’oya (loyiha)lar

<sup>53</sup>O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018-2021 yil yakunlari yuzasidan hisoboti. Toshkent-2021 y. <https://mininnovation.uz/opendata/post-69>

<sup>54</sup><https://mininnovation.uz/opendata/post-69>

portalidan foydalanuvchilar uch guruh («Buyurtmachi», «Tadqiqotchi» va «Investor»)ga ajratilgan bo'lib. Bugungi kunda, portalning «Buyurtmachi» guruhida ilmiy va innovatsion ishlanmalarga bo'lgan buyurtmalar soni 167 taga yetgan bo'lsa, «Tadqiqotchi» guruhiga ilmiy tadqiqotchilar tomonidan 607 tadan ortiq ilmiy ishlanmalar joylashtirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2018–2021-yillar ichida 94 ta startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha umumiy hajmi 73,8 mlrd.so'mlik shartnomalar tuzilgan bo'lib, mazkur startaplarning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari kesimidagi ulushiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning 20 tasi (18,7 mlrd. so'mlik) sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha, 19 tasi (15,7 mlrd. so'mlik) axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha, 23 tasi (15,2 mlrd. so'mlik) qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha, 12 tasi (10,2 mlrd. so'mlik) transport va energetika sohasi bo'yicha, 7 tasi (4,9 mlrd. so'mlik) qurilish sohasi bo'yicha, 5 tasi (3,3 mlrd. so'mlik) oziq-ovqat sohasi bo'yicha, 8 tasi (5,8 mlrd. so'mlik) esa iqtisodiyotning boshqa sohalariga oid loyihalardan iborat (2.6-rasm)<sup>55</sup>.


Shu bilan bir o'rinda, innovatsion loyihalarni tijoratlashtirishgacha tayyorlash maqsadida umumiy hajmi 102.1 mlrd.so'mga teng bo'lgan 137 ta loyiha Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, ushbu loyihalarning 44 tasiga 35,718 mlrd.so'm miqdoridagi mablag'larni iqtisodiyot sohalari va xususiy sektor tomonidan jalb etish rejalashtirilgan.

Hozirda ushbu innovatsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida 42 ta innovatsion korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda o'tgan 2021-yilning o'zida 603 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilgan. Albatta, mamlakatimizda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilm-fan va tadbirkorlik faoliyatining integratsiyasini chuqurlashtirish, innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha sezilarli ishlar qilinmoqda, bunga yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar yorqin misol

---

<sup>55</sup>O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018-2021 yil yakunlari yuzasidan hisoboti. Toshkent-2021 y. <https://mininnovation.uz/opendata/post-69>

bo'la oladi. Ammo, respublikamizda innovatsion tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar hamda o'z yechimini kutib turgan masalalar mavjud.



## 2.6-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo'yicha innovatsion startap loyihalari

Jumladan, hozirgi kunda, respublikamizning hududlar kesimidagi salohiyati (xususan, investitsiyaviy va innovatsion salohiyati) hamda mavjud resurslar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, tadbirkorlarning o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olish imkoniyatining cheklanganligi va aksariyat hollarda yopiqligi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu holat o'z navbatida milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi aniq. Negaki, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiyotimizni lokomotiv yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, tadbirkorlar va investorlar o'z faolyatlari uchun kerakli bo'ladigan ma'lumotlarni qonun doirasida olish, tanishish va tahlil qilish orqali, o'zlarining harakat rejalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Mamlakatimizda ilmiy yangiliklar, ilg'or va zamonaviy innovatsiyalar, texnik va texnogik ishlanmalar hamda startap loyihalar bozorining shakillanib borayotganligi, umuman olganda bunday bozorning mavjudligi ayni muddao, lekin iqtisodiyot nazariyasining talab-taklif qonunidan barchamizga ma'lumki,

mahsulotga ehtiyoj (talab) mavjud bo'lgandagina, ushbu mahsulotning bozori chaqqon bo'ladi. Ya'ni, mahalliy tadbirkorlarimizda innovatsion loyihalarga bo'lgan talab yetarli darajada bo'lsagina, taklif etilayotgan innovatsion loyihalar va ishlanmalarning hajmi ortadi, bu esa o'z navbatida raqobat muhitini yuzaga keltirib, tadqiqotchilar va innovatsion loyihalar mualliflarini o'z loyihalari ustida yanada kreativ ishlashga undaydi. Albatta, so'ngi yillarda yurtimizda innovatsiyalar bozorini shakillantirish bo'yicha bir qator mutasaddi idora va tashkilotlar tomonidan samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda, Biroq, innovatsion loyihalarga bo'lgan talab xo'jalik subyektlarining o'zida yuzaga kelsagina, ushbu jarayon haqiqiy bozor qonuniyatlari asosida rivojlanib boradi. Shu o'rinda, savol tug'iladi, ilg'or va zamonaviy ishlanmalar bo'lsayu, nima uchun ularga bo'lgan ehtiyoj yetarli darajada emas? Bizning nazarimizda, buning bir nechta sabablari mavjud. Birinchidan, aksariyat xo'jalik subyektlari an'anaviy tadbirkorlik faoliyatiga o'rganib qolishgan va shu sababli, ular innovatsion loyihalarga qiziqishmaydi. Ikkinchidan, innovatsion loyihalar orqali foyda olish bo'yicha tadbirkorlarda yetarli bilim-ko'nikmalarning mavjud emasligi va shuning uchun tavakkal qilishdan qo'rqish. Uchinchidan, xo'jalik subyektlari o'rtasida raqobat darajasining yetarli darajada emasligi va buning natijasida ularning o'zlari faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik turida yangilik qilishga bo'lgan ishtiyoqning va iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha tashabbusning sust ekanligi. Zero, raqobat muhiti mavjud bo'lmagan hududda va sohada innovatsion loyihalar hamda startaplarga bo'lgan ehtiyoj ham sezilarli darajada bo'lmaydi, ya'ni yuqorida aytib o'tganimizdek, tadbirkor o'z faoliyatiga yangiliklarni kiritishga ehtiyoj sezmaydi, faoliyat esa eskichasiga davom etib ketaveradi, go'yoki raqobat, iqtisodiy muhit-tenglik muhitiday. To'rtinchidan, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan xo'jalik subyektlari o'z faoliyatlariga innovatsiyalarni faol jalb etmayotganlarining sabablaridan yana biri sifatida, ushbu subyektlarning imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ya'ni, xo'jalik subyektlarining aksariyat qismida innovatsion va startap loyihalarni ishlab chiqarish uchun hozirgi talabdan kelib chiqqan holda innovatsion loyihalar va

yangiliklar ustida ish olib bora oladigan va bu bo'yicha zaruriy bilm-ko'nikmalarga ega bo'lgan qobiliyatli ishchi-xodimlarning mavjud emasligi yoki yetishmasligi, shuningdek, ko'p holatda tadbirkorlarning bu kabi tajribali xodimlarni qoniqtiradigan maosh bilan ta'minlay olmasligi hamda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish uchun moliyaviy holati va moddiy-texnika ta'minoti darajasining qoniqarli darajada emasligi. Beshinchidan, respublikamizdagi tadbirkorlarning aksariyatida tadbirkorlik hamda uni boshqarish, ishbilarmonlik etikasi, investorlar va hamkorlar bilan ishlash ko'nikmasi kabi biznesga oid bilim-ko'nikmalarning ozligi ham tadbirkorlik faoliyatiga innovatsiyalarni faol joriy etishga ta'sir etadigan omillardan biri sifatida hisoblashimiz mumkin.

Darhaqiqat, tadbirkor o'z faoliyatini boshlar ekan u bozorda mustahkam o'rnamishni, raqobatda ustunlikka erishishni va ko'proq foyda olishni orzu qiladi va unga qarab intiladi. Tadbirkor o'z intilishlarni ilmiy asosda, tizimli ravishda olib borishi zarur. Negaki, bu tadbirkorni turli xildagi risklardan saqlaydi. Ushbu fikrimizni yanada rivojlantirgan holda tadbirkorlikda marketing qoidalari hamda marketing tadqiqotlarini o'tkazish ahamiyati to'g'risida to'xtalaylik.

Rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari marketing tadqiqotlaridan unumli foydalanadilar. Bunday tadqiqotlar muammoni o'rganish va uni hal etishga qaratilgan bo'ladi. «Marketing tadqiqotlari o'zining texnikasiga ko'ra to'rtta "miqdoriy tahlil va bashoratlash», «sinovdan o'tkazish», «tajriba-sinov ishlab chiqarish va test», «tekshirib ko'rish va nazorat» guruhlarga bo'linib, har bir guruh bir nechta usulni qamrab olishi mumkin. Ushbu guruhlar tarkibiga kiruvchi usullar aniq bir vazifani hal qilishga moslashgan bo'ladi»<sup>56</sup>.

Yuqorida mulohazalarimiz va keltirib o'tilgan tahliliy materiallar asosida xulosa qilib aytib o'tishimiz mumkinki, tadbirkorlik faoliyatiga innovatsion loyihalarni faol joriy etish, ilm-fan va tadbirkorlik integratsiyasini yanada jadallashtirish hamda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mamlakatimizdagi mavjud tadbirkorlarning va ushbu faoliyat bilan shug'illanishni rejalashtirib turgan shaxslarning biznesga oid zamonaviy bilm-ko'nikmalar bilan

---

<sup>56</sup>V. Jurayev. Marketing tadqiqotlarini rivojlantirish-iqtisodiyot tarmoqlari yuksalishi garovi. <http://biznes-daily.uz>

ta'minlash hamda davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar to'g'risida xabardor qilish, ularga o'z tadbirkorlik faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil etish va innovatsiyalarni amaliyotga to'g'ri joriy etish yo'llarini hamda bunda tadbirkor tomonidan e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlarni ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Negaki, buning natijasida joylarda ishbilarmonlik muhiti darajasi oshadi, tadbirkorlarda innovatsion loyihalar hamda muvaffaqiyatli startaplarni ishlab chiqish va ilgari surish bo'yicha zarur ko'nikmalar shakillanadi. Shuningdek, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha tadbirkorlarda yuzaga keladigan texnik hamda psixologik to'siqlarga ham barham beriladi. Shu nuqtai nazardan, respublikamizdagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda barcha tadbirkorlarni va ushbu faoliyatga qiziquvchilarni Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'limlarida qisqa muddatli (bir haftalik) kurslarga jalb etish va ushbu kursni muvaffaqiyatli tugatganlarni rag'batlantirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir o'rinda, innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

**Birinchi**dan, tadbirkorlar o'z faoliyatlarini to'g'ri hamda samarali tashkil etishlari va yoki rejalashtirishlari uchun kerak bo'ladigan, qonunda taqiqlanmagan axborotlar hamda ma'lumotlar (misol uchun, hududlardagi mavjud resurslar bazasi, infratuzilma, aholi soni, bandlik darajasi, fuqarolarning o'rtacha daromadi va boshqa shu kabi ma'lumotlar) to'liq va rasman e'lon qilinishi lozim. Negaki, har qanday tadbirkor ma'lum bir hududda faoliyatini boshlar ekan u eng avvalo, ushbu hududga oid bo'lgan ma'lumotlarga qiziqishi tabiiy, zero, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish jarayonida e'tibor berilishi kerak bo'ladigan bir qator omillar bo'lib, ushbu omillar tadbirkorlarning rejalari va strategik dasturlarining hayotiylikini ta'minlaydi. Bu omillar quyidagilar:

- ✓ hudud aholisi soni va uning demografik holati;
- ✓ aholining ish bilan band bo'lmagan qismi;
- ✓ har bir fuqaroga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad ko'rsatkichi;

✓ hududning tabiiy shart-sharoitidan kelib chiqqan holda iqtisodiy imkoniyatlari.

**Ikkinchidan**, tadbirkorlik faoliyatida turli xildagi risklardan saqlanish yoki uni pasaytirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatining har bir turi bo'yicha marketing tadqiqotlarini kengaytirish va rivojlantirish. Bu tadbirkorlik faoliyatida talabning real hajmini aniqlash, taklif darajasi bilan solishtirish, bozorda muvozanatni o'rnatish imkonini beradi.

**Uchinchidan**, tadbirkorlik faoliyatida raqobat muhitini yanada jonlantirish maqsadida xo'jalik subyektlari faoliyatini o'rganib borish va o'zi faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni faol joriy qiluvchi iqtidorli tadbirkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yo'lga qo'yish lozim. Negaki, buning natijasida raqobat muhitidagi iqtisodiy tenglik holati o'zgaradi va tadbirkorlik subyektlarining bozorni egallash imkoniyatlari har xil bo'lib, raqobat muhiti shakllanadi. Natijada iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan subyektda innovatsion faoliyatga qiziqish kuchayadi.

Muxtasar qilib aytishimiz mumkinki, yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda tadbirkorlarning o'z faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil etgan holda innovatsiyalarni faol joriy etishga rag'batlarini oshiradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

## **II BOB BO'YICHA XULOSALAR**

Xizmatlar bozori va xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi risklarni tahlil qilish asosida quyidagi holatlar aniqlandi:

1. Milliy iqtisodiyotimizda xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi umumiy hajmi hamda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yildan yilga ortib borish tendensiyasiga ega ekanligi va buning natijasida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotimizning asosiy "drayveriga" aylanib borayotganligi ko'rsatib berildi.

2. Tahlillar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohasidagi hajmi o'sib borishi barobarida bu sohada tadbirkorlik subyektlari sonining ham ortib borish tendensiyasi aniqlandi.

3. Amalga oshirilgan tahlillar natijasida mamlakatimizda xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga olib kelishi ko'rsatib berildi.

4. Xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatida iqtisodiy risklarni tizimli tahlil qilish asosida quyidagilar asoslab berildi: risklar iqtisodiy hodisa sifatida obyektiv xususiyatga ega bo'lsada, uni baholash ko'rsatkichi subyektiv ekanligi; risklarni baholashning ishonchliligi turli ma'lumotlar bazasining ishonchliligi va to'liqliligi, boshqaruvchi xodimlarning malakaliligi va tajribasi kabi omillarga tayanishi.

5. Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy risklarni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar (risk omillari) va ularning miqdoriy qiymatlarini hisoblash usuli asoslab berildi.

6. Xo'jalik subyektining ("Me'mor O'tkir Chovka" MChJ) mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi risk omillari, ularning bog'liqlik turi va ta'sir darajasi aniqlash usuli juft korrelyatsion tahlil yordamida asoslandi.

7. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish bosqichlari va uning ishtirokchilari asoslab berildi.

8. Xizmat ko'rsatish korxonalarida tadbirkorlik rejalari va strategik dasturlarining hayotiylikini ta'minlash yo'llari asoslab berildi.


9. Marketing tadqiqotlarini kengaytirish va rivojlantirish orqali tadbirkorlik faoliyatida turli xildagi risklardan saqlanish yo'llari va imkoniyatlari asoslab berildi.

10. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion tadbirkorlik holati va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berildi.



### III-BOB. XIZMAT KO'RSATISH SUBYEKTLARIDA RISKLARNI BAHOLASH VA PASAYTIRISH ORQALI FAOLIYAT SAMARDORLIGINI TA'MINLASH

Tadqiqot ishimizning avvalgi bandlarida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida risklarni vujudga keltiruvchi omillar, ularning turlari hamda baholash usullari to'g'risida nazariy tushunchalarni bayon qilgan edik. Navbatdagi vazifa keltirilgan nazariy tushuncha va usullardan foydalangan holda tadbirkorlik subyektlari xususan, xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni baholash va uning ta'sir darajasini pasaytirish orqali korxonada faoliyati samaradorligini ta'minlashga doir amaliy masalalar yechimini aniqlashdan iborat. Bu masalalarning yechimini aniqlash tartibi quyidagi 3.1-rasmda keltirilgan.



**3.1-rasm. Xizmat ko'rsatish subyektlarida risklarni baholash va uning ta'sirini pasaytirish orqali faoliyat samaradorligini ta'minlash tartibi hamda tarkibi**

Quyida 3.1-rasmda keltirilgan har bir bandning amaliy yechimini aniqlaymiz.

### **3.1-§. Xizmat ko'rsatish subyektlariga ta'sir ko'rsatadigan risklarni baholash**

Xizmat ko'rsatish subyektlarida iqtisodiy risklarni baholash usullarining nazariy asoslaridan foydalangan holda aniq tadbirkorlik subyekti misolida risklarni baholaymiz.

Ma'lumki tadbirkorlik faoliyatida risklar noaniq holatlarda vujudga keladi va faoliyat natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan **mehnat resruslaridan foydalanishda fors-major holatlarda ish vaqti yo'qotilishining oldini olish** tadbirlarini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi. Bu holatni e'tiborga olgan holda aniq bir xizmat ko'rsatish subyekti misolida ishchi-xodimlarining fors-major sharoitlarida ish vaqtinini yo'qotish riski ta'sirida mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga ta'sirini baholaymiz.

Har bir korxonada ishchi-xizmatchilarning ish vaqtlaridan foydalanish jarayonida turli risk holatlari vujudga kelish oqibatida uning yo'qotilishi yuz berishi mumkin. Ish vaqtlarining yo'qotilishini to'liq oldini olish imkoniyati bo'lmasada, uning zaxira hosil qiluvchi qismini aniqlash mumkin. Bunday holatlarni Samarqand shahrida joylashgan «Me'mor O'tkir Chovka» MChJ bo'yicha ko'rib chiqamiz. Odatda ishchi xizmatchilarning ish vaqtlaridan foydalanishda smena ichidagi va to'liq smenali yo'qotishlar mavjud bo'lishi mumkin. Smena ichidagi yo'qotishlar ishchi-xizmatchilarning ish kunlarini fotografiya qilish asosida aniqlanadi. To'liq smenali yo'qotishlar esa korxonada kadrlar bo'limi ma'lumotlari va ishlab chiqarish-texnik bo'limlari tomonidan aniqlanadi. Shunga ko'ra qaralayotgan korxonada bo'yicha quyidagi 3.1, 3.2 va 3.3-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib turli risk holatlari bilan bog'liq holda korxonada 2019-2021 yillarda yo'qotilgan ish vaqtlarini aniqlaymiz. 3.1, 3.2 va 3.3-jadvallardagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada 2019-2021–yillar mobaynida xodimlarning o'rtacha soni 34 kishidan 85 kishiga yetgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada faoliyati ko'rsatkichlari ham shunga mos ravishda o'sgan.

## 3.1-jadval

**Samarqand shahrida joylashgan «Me'mor O'tkir Chovka» MChJning foyda ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlar<sup>57</sup>**

№	Ko'rsatkichlarning nomi	O' lchov birlig	Shartli belgisi	2019-yil oylari bo'yicha ko'rsatkichlar											
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1.	Korxonada foydasi	Mln. so'mda	F	91,98	92,13	92,34	92,39	92,52	92,88	93,31	93,64	93,89	94,63	94,66	95,09
2.	Realizatsiyadan tushgan tushum	Mln. so'mda	R	655,30	656,41	657,87	658,22	659,18	661,69	664,75	667,15	668,92	674,16	674,38	677,45
3.	Ishlab chiqarish xarajatlari (tannarxi)	Mln. so'mda	S <sub>t</sub>	360,97	361,58	362,39	362,58	363,11	364,49	366,18	367,50	368,47	371,36	371,48	373,17
4.	Bosh pudrat bo'yicha bajarilgan qurilish-montaj ishlari (QMI) hajmi	Mln. so'mda	V <sub>bp</sub>	555,34	556,28	557,52	557,81	558,63	560,75	563,35	565,38	566,88	571,32	571,51	574,11
5.	O'z kuchi bo'yicha bajarilgan QMI hajmi	Mln. so'mda	V <sub>o'k</sub>	517,86	518,98	520,38	520,66	521,5	524,02	526,82	528,78	530,32	535,22	536,62	539,14
6.	Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni	Kishi	Nr	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14
7.	Mehnat unumdorligi	Mln so'mda	M <sub>u</sub>	36,99	37,07	37,17	37,19	37,25	37,43	37,63	37,77	37,88	38,23	38,33	38,51
8.	Rejim ish vaqti fondi	Ishchi soat	T <sub>rr</sub>	33062	33062	33062	33062	33062	33062	33062	33062	33062	33062	33062	33062
9.	Ish vaqti fondining sarflanishi	Ishchi soat	T <sub>fs</sub>	32070	31905	32401	32335	32037	32401	32269	32599	32467	33062	32798	32665
10.	Debitor qarzdorlik	Mln so'm	D <sub>q</sub>	62,25	66,30	67,10	67,14	67,90	68,15	69,13	69,38	70,24	71,46	71,48	72,49

<sup>57</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Samarqand shahrida joylashgan «Me'mor O'tkir Chovka» MChJning foyda ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlar<sup>58</sup>**

№	Ko'rsatkichlarning nomi	O' lchov birligi	Shartli belgisi	2020-yil oylari bo'yicha ko'rsatkichlar											
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1.	Korxonada foydasi	Mln. so'mda	F	344,05	347,81	350,70	354,16	355,32	356,35	358,23	359,19	358,64	359,26	361,27	362,36
2.	Realizatsiyadan tushgan tushum	Mln. so'mda	R	1100,97	1112,99	1122,23	1133,32	1137,01	1140,33	1146,33	1149,41	1147,65	1149,63	1156,05	1159,54
3.	Ishlab chiqarish xarajatlari (tannarxi)	Mln. so'mda	S <sub>t</sub>	1100,97	1112,99	1122,23	1133,32	1137,01	1140,33	1146,33	1149,41	1147,65	1149,63	1156,05	1159,54
4.	Bosh pudrat bo'yicha bajarilgan qurilish-montaj ishlari (QMI) hajmi	Mln. so'mda	V <sub>bp</sub>	1693,8	1712,29	1726,5	1743,57	1749,24	1754,36	1763,59	1768,32	1765,61	1768,66	1778,54	1783,9
5.	O'z kuchi bo'yicha bajarilgan QMI hajmi	Mln. so'mda	V <sub>o'k</sub>	1590,86	1610,58	1626,22	1643,56	1650,36	1657,84	1668,38	1675,18	1675,52	1680,62	1690,14	1698,3
6.	Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni	Kishi	Nr	34	34	34	34	34	34	34	34	34	34	34	34
7.	Mehnat unumdorligi	Mln so'mda	M <sub>u</sub>	46,79	47,37	47,83	48,34	48,54	48,76	49,07	49,27	49,28	49,43	49,71	49,95
8.	Rejim ish vaqti fondi	Ishchi soat	T <sub>rf</sub>	80294	80294	80294	80294	80294	80294	80294	80294	80294	80294	80294	80294
9.	Ish vaqti fondining sarflanishi	Ishchi soat	T <sub>if</sub>	78528	77805	79411	78528	78287	79251	78769	78689	78849	78608	78528	78367
10.	Debitor qarzdorlik	Mln so'm	D <sub>q</sub>	13,55	13,87	14,16	14,47	14,69	14,91	15,87	16,80	16,60	16,98	19,74	19,98

<sup>58</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Samarqand shahrida joylashgan «Me'mor O'tkir Chovka» MChJning foyda ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlar<sup>59</sup>**

№	Ko'rsatkichlarni nomi	O' lchov birligi	Shartli belgisi	2021-yil oylari bo'yicha ko'rsatkichlar											
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1.	Korxonada foydasi	Mln. so'm	F	311,11	310,63	310,19	348,53	347,68	342,98	345,16	351,21	341,64	359,98	360,86	362,55
2.	Realizatsiyadan tushgan tushum	Mln. so'm	R	2117,53	2114,30	2111,32	2372,21	2366,47	2334,44	2349,31	2390,46	2325,35	2450,17	2456,14	2467,69
3.	Ishlab chiqarish xarajatlari (tannarxi)	Mln. so'm	St	1121,99	1120,28	1118,70	1256,93	1253,89	1236,92	1244,80	1266,60	1232,10	1298,24	1301,40	1307,52
4.	Bosh pudrat bo'yicha bajarilgan qurilish-montaj ishlari (QMI) hajmi	Mln. so'm	V <sub>bp</sub>	1780,93	1778,22	1775,71	1995,13	1990,30	1963,36	1975,87	2010,48	1955,72	2060,70	2065,72	2075,43
5.	O'z kuchi bo'yicha bajarilgan QMI hajmi	Mln. so'm	V <sub>o'k</sub>	1698	1698,02	1698,1	1761,2	1752,44	1724,45	1742,53	1782,5	1737,16	1841,45	1842,38	1872,21
6.	Ishchi-xizmatchilar soni	Kishi	Nr	34	34	34	85	85	85	85	85	85	85	85	85
7.	Mehnat unumdorligi	Ming so'mda	M <sub>u</sub>	49,94	49,94	49,94	50,72	50,62	50,29	50,5	50,97	50,44	51,66	51,68	52,03
8.	Rejim ish vaqti fondi	Ishchi soat	T <sub>rf</sub>	80294	80294	80294	200736	200736	200736	200736	200736	200736	200736	200736	200736
9.	Ish vaqti fondining sarflanishi	Ishchi soat	T <sub>if</sub>	78608	77484	78689	196320	194513	196721	195918	197926	197123	200736	199730	198327
10.	Debitor qarzdorlik	Mln so'm	D <sub>q</sub>	166,25	170,29	172,82	174,53	176,24	177,89	179,97	180,46	175,59	179,34	182,66	184,37

<sup>59</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3.4-jadval

«Me'mor O'tkir Chovka» MChJda 2019–2021-yillarda fors-major holatlarda ish vaqti yo'qotilishi

Ish vaqtining yo'qotilishi	Ish vaqtining yo'qotilishining sabablari	Ish vaqtining yo'qotilishi, kishi smena, ( $V_{ij}$ )	Yo'qotilgan ish vaqtdan zaxira hosil qiluvchi koeffitsiyenti ( $Z_{ij}$ ), $0 < Z_{ij} < 1$ ekspertlar bahosi	Yo'qotilgan ish vaqtdan zahira hosil qilish miqdori, ishchi kun, ( $B_{IK}^3$ )
1	2	3	4	5
<b>Smena ichidagi yo'qotishlar</b>		<b>168</b>	-	-
Smena ichidagi bo'sh qolishlar (prostoylar)	Elektr energiyasining to'satdan uzilishi	24	0,8	19
	Mashina va mexanizmlarning to'satdan buzilishi	15	0,75	11
	Tasodifiy-tashkiliy sabablar	12	0,5	6
Ortiqcha ishlar uchun sarflanadigan ish vaqtlari:	Loyiha hujjatlarining nosozligi	-	-	
- ishdagi yaroqsiz mahsulotni sozlashga	Ish jarayonida loyihaning o'zgartirilishi	13	0,4	5
	Sifatsiz materiallardan foydalanish	18	0,9	16
	Ishni bajarishda texnologiyaning buzilishi	10	0,8	8
	Ishchilarning aybi bilan	20	0,6	12
- boshqa unumsiz mehnatga	Mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishning pastligi	10	0,75	8
Ishchi kadrlar qo'nimsizligi tufayli	Ish haqining pastligi	30	0,5	15
	Mehnat intizomning buzilishi	15	0,8	12
<b>To'liq smenali yo'qotishlar</b>		<b>1536</b>	-	-
To'liq smenali bo'sh qolishlar (prostoylar)	Elektr energiyasining to'satdan uzilishi	276	0,8	221

	Mashina va mexanizmlarning to'satdan buzilishi	246	0,75	185
	Tasodifiy-tashkiliy sabablar	215	0,5	108
	Atmosfera sharoiti tufayli	276	0,4	110
Ishlab chiqarish jarohati tufayli	Mashina va mexanizmlarning nosozligi	108	0,75	81
	Ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi	169	0,7	118
	Ishlarni mexanizatsiyalashganlik darajasining pastligi	246	0,8	197
	<b>Jami:</b>	<b>1704</b>	-	<b>1132</b>

Navbatdagi vazifa korxonaning faoliyati davomida yo'qotilgan ish vaqtlari fondining zaxira hosil qiladigan qismini aniqlashdan iborat. Bu korxonada faoliyati davomida yo'qotilgan ish vaqtlaridan zaxira hosil qilish mumkin bo'lgan qismi orqali aniqlanadi. Bunda ana shu zaxirani hosil qiladiga koeffitsiyent ( $Z_{ij}$ ) orqali aniqlanadi. Bu koeffitsiyent  $0 \leq Z_{ij} \leq 1$  oraliqdagi qiymatni qabul qiladi.

Shunga ko'ra uning zaxira hosil qilishi mumkin bo'lgan miqdorini ( $B_{HK}^3$ ) aniqlaymiz. Jadvalda amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra  $B_{HK}^3 = 1132$  kishi smenaga teng ekan. Bir ishchi kuniga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi ( $V_y^1$ ) quyidagiga teng bo'ladi:

$$\text{Bu yerda, } V_y^1 = \frac{V}{N_{HK}} = 818,2 \text{ ming so'm/ ishchi kunga teng,}$$

U holda korxonaning qo'shimcha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta V = B_{HK}^3 * V_y^1 = 1132 * 818,2 = \mathbf{926202,4} \text{ ming so'm.}$$

Korxonaning mehnat resurslaridan foydalanish jarayonida fors-major holatlarning yuzaga kelishi natijasida ish vaqti yo'qotilishini oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan tadbirlar bir ishchi kunida korxonaning qo'shimcha **926202,4** ming so'mga teng ishlab chiqarish hajmini oshishiga olib kelar ekan.

Bundan ko'rinadiki xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarining fors-major sharoitlarida ish vaqtini yo'qotish riski ish vaqtini yo'qotish hajmining zaxira hosil qilmaydigan qismiga teng bo'ladi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich umumiy holda 572 (1704-1132) kishi smenaga teng. Shunga mos ravishda mehnat unumdorligi ham pasayadi. Agar ish vaqtini yo'qotish turlari bo'yicha qaraydigan bo'lsak unda kam yo'qotish 0,2 koeffitsiyentga, eng ko'p yo'qotish esa 0,5 koeffitsiyentga teng bo'ladi. Demak xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarining fors-major sharoitlarida ish vaqtini yo'qotish riski ta'sirida mehnat unumdorligi darajasi pasayishining me'yoriy chegaralari ( $0,2 \leq U_{mu} \leq 0,5$ ) diapozonga teng bo'ladi



Yuqorida bayon etilgan usul yordamida har bir xizmat ko'rsatish (yoki ishlab chiqarish) korxonalaridagi bunday holatlarni aniqlash va zaruriy tadbirlar tuzish imkoniyatini yaratadi.

**Xizmat ko'rsatish subyektlariga ta'sir qiluvchi omillarning juft korrelyatsion tahlili.** Dissertatsiya ishimizning avvalgi 2.2 bandida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan 12 ta risklarning ta'sir ko'rsatish darajasini aniqladik (2.10-jadval). Risklarning ta'sir darajasini baholash natijalariga ko'ra shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi, ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotishdagi, narx-navo o'zgarishidagi, mehnat unumdorligining pasayib ketishidagi va inflatsiya bilan bog'liq risklar **kuchli ta'sir ko'rsatar ekan.**

Bu risklarning aniq tadbirkorlik subyekti misolida ko'rib chiqish uchun Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatayotgan «Me'mor O'tkir Chovka» mas'uliyat cheklangan jamiyatni tanlaymiz va uning ma'lumotlaridan foydalanib, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishini baholaymiz hamda kelgusi davr uchun prognozlaymiz. Amalga oshiriladigan ishlarni bajarish uchun avvalo yuqorida ko'rsatib o'tilgan, kuchli ta'sir ko'rsatadigan risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlashda korxonaning quyidagi boshlang'ich ma'lumotlaridan foydalanamiz (3.1, 3.2 va 3.3-jadvallar). Bu jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini navbatdagi 3.4-jadvaldan foydalanib aniqlaymiz va 3.5-jadvalga kiritamiz. Bunda ba'zi ma'lumotlar hisoblab topiladi, ba'zilari esa maxsus manbalardan olinadi.

3.4-jadvalda keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, korxonada mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risklarni aniqlashda korxonaning debitorlik qarzdorligi ma'lumotlaridan foydalanamiz. Debitorlik qarzdorligi hajmi qancha kamaysa, korxonaning umumiy ish hajmidan tushadigan tushumini shuncha ko'paytiradi. Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotish riski korxonada bo'yicha rejim ish vaqti fondidan ( $R_f$  - ish vaqti fondi bu korxonada faoliyat

**«Me'mor O'tkir Chovka» MChJning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarning miqdoriy ko'rsatkichlari manbalarini aniqlash jadvali<sup>60</sup>**

<b>№</b>	<b>Omllarning nomlanishi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Omllarni aniqlash manbalari va formulalari</b>
1.	Mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk ( <b>X<sub>1</sub></b> )	Umumiy ish hjamiga nisbatan foizda	$K_{shmb} = \frac{D_q}{R} \times 100,$ $D_q$ – korxonaning debitorlik qarzdorligi (3.1–3.3-jadvallardan olinadi); $R$ – mahsulot realizasiyadan tushgan tushum (3.1–3.3-jadvallardan olinadi);
2.	Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotish riski ( <b>X<sub>2</sub></b> )	Ishchi soat	$T_{ivy} = (R_f - T_{fs}) / R_f$ $R_f$ – rejim ish vaqti fondi (3.1–3.3-jadvallardan olinadi); $T_{fs}$ – ish vaqti fondining sarflanishi (3.1–3.3-jadvallardan olinadi)
3.	Narx-navo riski ( <b>X<sub>3</sub></b> )	Narx indeksi	O'zR Statistika qo'mitasi ma'lumotlari
4.	Mehnat unumdorligining pasayib ketish riski ( <b>X<sub>4</sub></b> )	Mln.so'm	$M_u$ (3.1–3.3-jadvallarning ma'lumotlari)
5.	Inflatsiya riski ( <b>X<sub>5</sub></b> )	Foizda	O'zR Markaziy banki ma'lumotlari

ko'rsatayotgan ishchi xizmatchilar sonini ish smenasi davomiyligiga (8,2 soat), bir oydagi o'rtacha ish kunlari soniga va 12 oyga ko'paytirilib topiladi) ish vaqti fondining sarflanishini ( $T_{fs}$  – korxonada kadrlar bo'limi ma'lumotlaridan olinadi) ayirish orqali aniqlanadi. Qolgan risklarning miqdoriy ko'rsatkichlari 2.2-§ dagi 2.10-jadvalda keltirilgan.

Korxonada faoliyatida asosiy maqsad ko'proq foyda olishdan iborat. Risklar esa avvalo korxonaning oladigan foydasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralayotgan «Me'mor O'tkir Chovka» MChJ bo'yicha kuchli ta'sir ko'rsatuvchi risklarning korxonada foydasiga ta'sirini o'rganamiz va kelgusi davr uchun prognozlaymiz. Buning uchun 3.1–3.3-jadvallardagi ma'lumotlardan foydalanib korxonaning 2019–2021-yillardagi foyda ko'rsatkichlari va risklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini quyidagi 3.5-jadvalga kiritamiz.

<sup>60</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

**«Me'mor O'tkir Chovka» MChJning 2019–2021-yil oylari bo'yicha  
moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarning  
miqdoriy ko'rsatkichlari<sup>61</sup>**

№	Korxonaning foyda ko'rstakichlari (Y)	Risklarning miqdoriy ko'rsatkichlari				
		X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>
<b>2019-yil oylari bo'yicha</b>						
1	91,98	9,5	130	36,99	14	294,33
2	92,13	10,1	130	37,07	14	294,83
3	92,34	10,2	129	37,17	14	295,49
4	92,39	10,2	129	37,19	14	295,64
5	92,52	10,3	129	37,25	14	296,07
6	92,88	10,3	128	37,43	14	297,2
7	93,31	10,4	127	37,63	14	298,58
8	93,64	10,4	126	37,77	14	299,65
9	93,89	10,5	126	37,88	14	300,45
10	94,63	10,6	125	38,23	16	302,8
11	94,66	10,6	125	38,33	16	302,9
12	95,09	10,7	124	38,51	16	304,28
<b>2020-yil oylari bo'yicha</b>						
13	344,05	15,1	295	46,79	16	1100,97
14	347,81	15,3	295	47,37	16	1112,99
15	350,7	15,4	294	47,83	16	1122,23
16	354,16	15,4	294	48,34	16	1133,32
17	355,32	15,5	294	48,54	16	1137,01
18	356,35	15,6	293	48,77	16	1140,33
19	358,23	15,7	293	49,07	16	1146,33
20	359,19	15,7	293	49,27	16	1149,41
21	358,64	15,3	293	49,28	16	1147,65
22	359,26	15,6	293	49,43	16	1149,63
23	361,27	15,8	292	49,71	16	1156,05
24	362,36	15,9	293	49,95	16	1159,54
<b>2021-yil oylari bo'yicha</b>						
25	311,11	14,1	286	49,94	16	995,54

<sup>61</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

26	310,63	14	283	49,94	14	994,02
27	310,19	13,5	281	49,94	14	992,62
28	348,53	14,8	294	50,72	14	1115,28
29	347,68	14,5	290	50,62	16	1112,58
30	342,98	14,1	288	50,29	16	1097,52
31	345,16	14,3	289	50,5	16	1104,51
32	351,21	14,9	292	50,97	16	1123,86
33	341,64	14,4	287	50,44	16	1093,25
34	359,98	15,3	290	51,66	16	1151,93
35	360,86	15,5	291	51,68	16	1154,74
36	362,55	15,7	292	52,03	16	1160,17

Korxonada foydasiga risklarning bog'liqligini avvalo juft korrelyatsion tahlildan foydalanib aniqlaymiz. Juft korrelyatsion tahlil natijalari quyidagicha (3.2, 3.3, 3.4, 3.5, 3.6-rasmlar)<sup>62</sup>:

1. Mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk ( $X_1$ ) bo'yicha:

Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r = 0,98535828$  bu riskning korxonada foydasiga juda yaqin bog'liqlikda ekanligini bildiradi. Riskning o'zgarish dinamikasi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega (3.2-rasm).

2. Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotish riski ( $X_2$ ) bo'yicha:

Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r = 0,9967703$  bu riskning korxonada foydasiga juda yaqin bog'liqlikda ekanligini bildiradi. Riskning o'zgarish dinamikasi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega (3.3-rasm).

3. Narx-navo riski ( $X_3$ ) bo'yicha:

Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r = 0,206024024$ ga teng. Bu risk ham korxonada foydasiga yaqin bog'liqlikda ekanligini bildiradi. Riskning o'zgarish dinamikasi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega (3.4-rasm).

4. Mehnat unumdorligining pasayib ketish riski ( $X_4$ ) bo'yicha:


<sup>62</sup>Rasmlar muallif tomonidan tuzilgan.

Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r = 0,977274501$  ga teng. Bu risk ham korxonaga foydasiga juda yaqin bog'liqlikda ekanligini bildiradi. Riskning o'zgarish dinamikasi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega (3.5-rasm).


5. Inflatsiya riski ( $X_5$ ) bo'yicha:

Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r = 0,640043018$  ga teng. Bu risk ham korxonaga foydasiga juda yaqin bog'liqlikda ekanligini bildiradi. Riskning o'zgarish dinamikasi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega (3.6-rasm).


Ma'lumotlar va rasmlardan ko'rinib turibdiki, narx-navo riskidan tashqari ( $r = 0,206024024$ ) barcha risklar «Me'mor O'tkir Chovka» MChJning foyda ko'rsatkichiga uzviy bog'liq ekan. Shuning uchun bu riskni ko'plik korrelyatsiya tahliliga kiritmaslik mumkin.




3.2-rasm. Mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi riskning ( $X_1$ ) oylar bo'yicha o'zgarish dinamikasi turi




3.3-rasm. Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo'qotish riskining ( $X_2$ ) oylar bo'yicha o'zgarish dinamikasi turi.



**3.4-rasm. Narx-navo riskining ( $X_3$ ) oylar bo'yicha o'zgarish dinamikasi turi.**



**3.5-rasm. Korxonalar mehnat unumdorligi ko'rsatkichining ( $X_4$ ) oylar bo'yicha o'zgarish dinamikasi turi**



**3.6-rasm. Inflyatsiyaning ( $X_5$ ) oylar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi turi.**

## 3.6-jadval

**“Me’mor O’tkir Chovka” MChJning foyda ko’rsatkichlariga ta’sir ko’rsatuvchi risklarni korrelyatsion tahlil qilish natijalari<sup>63</sup>**

№	Korxonada foyda ko’rsatkichiga ta’sir qiluvchi risklar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti ((r))	Korrelyatsiya koeffitsiyentining o’rtacha kvadratik xatoligi $\sigma_r = \frac{1 - r^2}{\sqrt{n}}$	Ishonarlilik koeffitsiyenti $\mu = \frac{r}{\sigma_r}$
1.	Mijozlarning shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk (X <sub>1</sub> )	0,98535828	0,0049853	197,6527551
2.	Ishchi xodimlarning ish vaqtlarini yo’qotish riski (X <sub>2</sub> )	0,996770303	0,00110599	901,2471207
3.	Mehnat unumdorligining pasayib ketish riski (X <sub>4</sub> )	0,977274501	0,00770621	126,8164897
4.	Inflyatsiya riski (X <sub>5</sub> )	0,640043018	0,10124332	6,321829608
5.	Narx-navo riski (X <sub>3</sub> )	0,206024024	0,16421917	1,254567442

Olingan natijalarni umumlashtirgan holda 3.6-jadvalga kiritib, korrelyatsiya koeffitsiyentlarining o’rtacha kvadratik xatoligini va ishonarlilik koeffitsiyentini aniqlaymiz. Korrelyatsiya koeffitsiyentlari  $0,206024024 < r_i < 0,996770303$  oralig’dagi miqdorlarda o’zgaradi. Bundan ma’lum bo’ladiki narx-navo riskidan tashqari barcha risklar korxonada foyda ko’rsatkichi bilan bog’liqlik darajasi katta ekanligini ko’rsatadi. Bunga yanada ishonch hosil qilish uchun korrelyatsiya koeffitsiyentining o’rtacha kvadratik xatoliligini ( $\sigma$ ) va ishonarlilik koeffitsiyentlarini ( $\mu$ ) hisoblaymiz (3.6-jadval). Agar korrelyatsiya koeffitsiyentining ( $r$ ) miqdori 0,25 dan katta va ishonarlilik koeffitsiyenti  $\mu$  ning miqdori 0,2 dan katta bo’lsa u holda risklarning foyda ko’rsatkichiga ta’sir ko’rsatish darajasi kuchli ekanligini ko’rsatadi. Shunga ko’ra risklarni baholaydigan bo’lsak korxonada faoliyatiga narx-navo o’zgarishidagi riskdan tashqari barcha risklar katta ta’sir qilar ekan. Jadvaldagi hisoblashlardan bunga amin bo’lish mumkin. Yuqorida biz risklarning korxonada faoliyatiga ta’sirini

<sup>63</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

alohida-alohida juft korrelyatsiya tahlil yordamida aniqladik. Risklarning korxonalar faoliyatiga birgalikdagi ta'sirini o'rganishda va prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda bu ma'lumotlardan foydalanamiz.

### **3.2-§. Tadbirkorlikda investitsiya loyihalarini baholash va xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajasini aniqlash**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirish orqali aholining bandligi va farovonligini oshirishdan iborat. Taraqqiy etgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili ekanligi amaliyotda isbotlangan. O'zbekistonda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining asosi hisoblanuvchi o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ham o'z aksini topgan: «...faol tadbirkorlikni rivojlantirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes subyektlarini jadal va barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi».

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar iqtisodiyotning barcha sohalarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga zamin yaratayotgan bo'lsada, tahlillarning ko'rsatishicha, sohada tadbirkorlikni rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Bu avvalo, xizmat ko'rsatish subyektlarining bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga muvofiq o'z faoliyatini tashkil eta olmaganligi va xo'jalik yuritish samaradorligining pastligida namoyon bo'lmoqda. Bu muammolarni hal etish sohada xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni yanada takomillashtirish, ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, sohada tadbirkorlik faolligini va samaradorligini



baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sohasida KBXTning samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni va ularning faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va sohada tadbirkorlik faoliyatini baholash mezonlariga bag'ishlangan qator xorijlik va mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari mavjud. Xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslari va ijtimoiy ahamiyati A.Smit<sup>64</sup>, J.Sey, J.Keyns<sup>65</sup>, Y.Shumpeter<sup>66</sup>, A.Chayanov<sup>67</sup>, K.Raiskiy<sup>68</sup>, I.Juravleva<sup>69</sup>, A.Kiselev<sup>70</sup> kabi iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular KBXT nazariyasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu mavzu bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Xususan, S.G'ulomov<sup>71</sup>, Y.Abdullayev<sup>72</sup>, M.Qosimova<sup>73</sup>, B.Xodiyev<sup>74</sup>, A.Abdullayev<sup>75</sup>, D.Suyunov<sup>76</sup>, M.Pardayev<sup>77</sup>, S.Salayev<sup>78</sup>, B.Abdukarimov<sup>79</sup>, G.Sevlikyans va E.Xadjayev<sup>80</sup> kabilarning bu borada olib borgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

---

<sup>64</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: «Соц эгиз», 1962. - 332 с.

<sup>65</sup> Кейнс Дж. Общая теория занятости процента и денег. –М.: «Прогресс», 1948. - 240 с.

<sup>66</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М.: «Мысль», 1982.-159 с.

<sup>67</sup> Чаянов А.В. О размере семьи и крестьянского домохозяйства. // Вестник статистики. 1991, №7,- 47 с.

<sup>68</sup> Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник.- М.: ИВЦ «Маркетинг». 2003. - 683 с.

<sup>69</sup> Журавлева И.А. Основные направления развития малого бизнеса в сфере услуг и их экономическое обоснование, Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Белгород-2005.

<sup>70</sup> Киселев А.П. Теория и практика современного бизнеса. – «Либра», 1995. - 246 с.

<sup>71</sup> S.S.G'ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002. - 365 b.

<sup>72</sup> Y.Abdullayev, F.Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. 100 savol va 100 javob (1-qism), Т.- «Mehnat», 2000.- 347 b.

<sup>73</sup> M.S.Qosimova, B.Y.Xodiyev, A.N.Samadov, U.S.Muxitdinova. Kichik biznesni boshqarish. –Т: «O'qituvchi», 2003. - 239 b.

<sup>74</sup> B.Xodiyev, B.Berkinov, A.Kravchenko. Biznes qiymatini baholash. Т.: «Iqtisod-moliya» 2007.- 254 b.

<sup>75</sup> A.Abdullayev, A.Sotvoldiyev, I.O'rinboyev, S.Abdullayev va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. – Т: «Fan va texnologiya», 2005. - 243 b., A.Abdullayev, Q.Muftaydinov, X.Aybeshov. Kichik biznesni boshqarish. – Т.: «Moliya» 2003. - 191 b.

<sup>76</sup> D.X.Suyunov. «Kichik va o'rta biznes subyektlarida boshqaruvni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish yo'nalishlari» iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Т., TDIU, 2004. - 23 b.

<sup>77</sup> M.Q.Pardayev, J.I.Isroilov. Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari, (Monografiya), Т: «Fan va texnologiya», 2007. - 163 b.

<sup>78</sup> S.K.Salayev. «Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash» iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: TDIU 2008. - 49 b.

<sup>79</sup> B.A.Abdukarimov. Ichki savdo iqtisodiyoti. – Т.: «Fan va texnologiya», 2007. - 386 b.

<sup>80</sup> Севликиянц Г.С., Ходжаев Э.Н. Предпринимательство в Республике Узбекистан.-Т.: изд. Народного наследия им. А.Кадыри МГП «Ижод», 1993. - 159 с.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hududda yaratilgan shart-sharoitlarga va ishbilarmonlik muhitga bog'liq. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashning asosiy maqsadi ham ijobiy ishbilarmonlik muhitni yaratish orqali xizmat ko'rsatish subyektlariga ko'proq investitsiyalarni jalb etishdan, ularning samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyati samardorligi birinchi navbatda investitsiya loyihalarning jozibadorligiga, sifatiga, undagi hisob-kitoblarning to'g'ri amalga oshirilganligiga bog'liq. Ularning har biriga alohida to'xtalib o'tsak.

Jozibadorlik. Ma'lumki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish ma'lum miqdordagi mablag'lar bilan ta'minlanganlikka bog'liq. O'z o'rnida mablag'lar tadbirkorning o'ziga yoki investorga tegishli bo'lishi mumkin. Investordan esa mablag'ni osonlikcha olib bo'lmaydi. Shu sababli investorga taqdim qilinayotgan investitsiyaviy loyiha uni o'ziga ohangrabodek tortishi zarur. Loyihalarning jozibadorligi deganda ana shu xususiyat tushuniladi. Unga qanday erishish mumkin? Buning uchun loyihaga kreativ yondashgan holda, uni aniq, tushunarli va qiziqarli sur'atda rasmiylashtirish lozim. Loyihada o'rtaga tashlangan masalaning tushunarli va ravon yoritilishi hamda hisob-kitoblarning ishonchli taqdim etilishi loyihaning sifatini belgilab beradi.

Shu bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatida loyihalar (biznes rejalar)ni iqtisodiy jihatdan baholash mazkur loyihalarni amaliyotga tadbiiq etish yoki etmaslik to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Investitsiya loyihalarini hayotga tadbiiq etishda avvalo uning hayotiy sikllari o'rganiladi va loyihaga iqtisodiy jihatdan baho beriladi.

Investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- 1) Sof diskontlangan daromad
- 2) Daromadlilik indeksi.
- 3) Daromadlilikning ichki me'yori.

**Sof diskontlangan daromad** quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D_d = \sum_{t=0}^T (R_t - z_t) \frac{1}{(1+E)^t} \quad (3.1)$$

Bu yerda:

$R_t$  – investitsiya loyihani amalga oshirishdan keladigan tushum (natija), ming so'mda.

$z_t$  – loyihani amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlar, ming so'mda.

$E$  – diskontlash koeffitsiyenti.

Loyihalarni iqtisodiy baholashdagi ikkinchi ko'rsatkich bu daromadlilik indeksidir. **Daromadlilik indeksi** quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D = \frac{1}{K} \sum_{t=1}^T (R_t - z_t) \frac{1}{(1+E)^t} \quad (3.2)$$

Bunda:  $K$  - moliyalashtiriladigan mablag' miqdori.

Loyihalarni iqtisodiy baholashning yana bir ko'rsatkichi bu **daromadlilikning ichki me'yori**dir. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sum_{t=1}^T \frac{(R_t - z_t)}{(1-E_n)^t} = \sum_{t=1}^T \frac{K_t}{(1-E_n)^t} \quad (3.3)$$

Yuqoridagi ko'rsatkichlar investitsiya loyihalarni iqtisodiy baholashda muhim rol o'ynaydi. Bu ko'rsatkichlarning amaliy tadbiqini Samarqand shahridagi «APPOLON MED SERVICE» mas'uliyati cheklangan jamiyatning Samarqand shahrida «Zamonaviy asbob-uskunalarni sotib olish orqali tibbiy markaz tashkil etish» bo'yicha tuzilgan investitsiya loyihasi misolida ko'rib chiqamiz. Loyihaning maqsadi aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdan iborat. Hisoblashlar uchun quyida 3.11-jadvalda keltirilgan investitsiyaviy loyiha ko'rsatkichlaridan foydalanamiz.

Bu jarayonda biz barcha hisoblashlarni 3.12-jadval yordamida amalga oshiramiz. Bunda diskontlash koeffitsiyentini 10 %ga teng deb olamiz. Jadvalda amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, loyiha bo'yicha sof diskontlangan daromad **944058,9** yevroga teng ekan.

## 3.11-jadval

**Samarqand shahridagi «APPOLON MED SERVICE» mas'uliyati  
cheklangan jamiyatning «Zamonaviy asbob-uskunalarini sotib olish orqali  
tibbiy markaz tashkil etish» bo'yicha investitsiya loyihasining asosiy  
ko'rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar nomi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Hisoblash formulasi</b>	<b>Miqdori</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1.	Tibbiy xizmat ko'rsatish markazi		<b>OOO «APPOLON MED SERVICE»</b>	1
2.	Loyihaning umumiy investitsiya qiymati	Yevro	<b>Is</b>	1998311
3.	Sarflanadigan xususiy mablag'	Yevro	<b>Sc</b>	498311,0
4.	Olinadigan kredit so'mmasi, yillik	Yevro	<b>Kr</b>	1500000,0
5.	Tibbiy xizmat ko'rsatishdan tushadigan umumiy tushum, uch yilda	Yevro	Tibbiy xizmat turlari bo'yicha ( <b>R<sub>t</sub></b> )	4223183,0
	shu jumladan: 1-yilda	Yevro	<b>R<sub>1</sub></b>	1059936,0
	2-yilda	Yevro	<b>R<sub>2</sub></b>	1126182,4
	3-yilda	Yevro	<b>R<sub>3</sub></b>	1192428,0
6.	Tibbiy xizmat ko'rsatishdagi xarajatlar, uch yilda	Yevro	Tibbiy xizmat turlari bo'yicha ( <b>Z<sub>t</sub></b> )	2341119
	shu jumladan: 1-yilda	Yevro	<b>Z<sub>1</sub></b>	815676
	2-yilda	Yevro	<b>Z<sub>2</sub></b>	769304
	3-yilda	Yevro	<b>Z<sub>3</sub></b>	756139
7.	Olinadigan foyda, jami uch yilda	Yevro	<b>F = R<sub>t</sub> - Z<sub>t</sub></b>	1882064,0
	shu jumladan: 1-yilda	Yevro		244260,0
	2-yilda	Yevro		256878,4
	3-yilda	Yevro		436289,0
8.	To'lanadigan umumiy soliq miqdori jami uch yilda	Yevro	<b>N</b>	106139

	shu jumladan: 1-yilda	Yevro	<b>N<sub>1</sub></b>	-
	2-yilda	Yevro	<b>N<sub>2</sub></b>	-
	3-yilda	Yevro	<b>N<sub>3</sub></b>	106139
9.	Sof foyda jami uch yilda	Yevro	<b>B = F - N</b>	831288,0
	shu jumladan: 1-yilda	Yevro		244260,0
	2-yilda	Yevro		256878,0
	3-yilda	Yevro		330150,0
10.	Iqtisodiy rentabellik darajasi o'rtacha uch yilda	Yevro	<b>IR = (B/ Z<sub>t</sub>) * 100</b>	35,5
	shu jumladan: 1-yilda	Yevro		29,9
	2-yilda	Yevro		33,4
	3-yilda	Yevro		43,7

Navbatdagi masala loyihaning ichki me'yoriy daromadlilikini aniqlashdan iborat. Bunda,

$$\sum_{t=1}^3 (Rt - 3t) \frac{1}{(1 + 0,1)^3} = 1882064,0 \times 0,751315 = \mathbf{1414022,91} \text{ eBpo}$$

U holda ichki me'yoriy daromadlilik (D) quyidagiga teng bo'ladi:

$$\mathbf{D = \frac{1}{1998311} \times 1414022,91 = 0,71}$$

Hisob-kitoblar natijasi qaralayotgan loyihaning samarali ekanligini ko'rsatdi. Endi, ichki me'yoriy daromadlilik ko'rsatkichi yordamida loyihaning daromadliliqi taqqoslanadi. Agar ichki me'yoriy daromadlilik ko'rsatkichi talab qilinayotgan daromaddan katta bo'lsa loyihaning qabul qilinishi maqadga muvofiq, aks holda loyiha qabul qilinmaydi.

## 3.12-jadval

**Samarqand shahridagi «APPOLON MED SERVICE» mas’uliyati cheklangan jamiyatning  
Samarqand shahrida «Zamonaviy asbob-uskunalarni sotib olish orqali tibbiy markaz tashkil etish» bo’yicha  
investitsiya loyihasini iqtisodiy baholash ko’rsatkichlari<sup>81</sup>**

<b>Loyihaning hayotiy sikli, yillarda</b>	<b>Natijalar, yevroda (R<sub>t</sub>)</b>	<b>Xarajatlar, yevroda (Z<sub>t</sub>)</b>	<b>Natijalar va xarajatlar o’rtasidagi farq, yevroda (R<sub>t</sub> – Z<sub>t</sub>)</b>	<b>Diskontlash koeffitsiyenti Ye=10%, 1/(1+Ye)<sup>t</sup></b>	<b>Sof diskontlangan daromad, yevroda (R<sub>t</sub> – X<sub>t</sub>) / (1+Y)<sup>t</sup></b>
2020	1059936,0	815676	244260,0	0,91	222276,6
2021	1126182,4	769304	356878,4	0,91	324759,3
2022	1192428,0	756139	436289	0,91	397023,0
<b>Jami</b>	<b>3378546</b>	<b>2341119</b>	<b>1037427</b>		<b>944058,9</b>

<sup>81</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Investitsiya loyihalarini yuqorida keltirilgan usullar yordamida iqtisodiy baholash loyihalarning qanchalik samarali ekanligini aniqlab, uni qabul qilish yoki qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

**xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiya loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarini riskka moyillik darajalarini aniqlash.** Investitsiya loyihalarini baholash barobarida xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga asosan quyidagi turdagi xizmat ko'rsatish turlari mavjud: axborot va aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, ta'lim sohasi xizmatlari, sog'liqni saqlash sohasi xizmatlari, ijara va lizing bo'yicha xizmatlar, kompyuter, shaxsiy foydalanish byumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar.

### 3.13-jadval

**Xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiya loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini guruhlash<sup>82</sup>**

<b>№</b>	<b>1-guruh: R<sub>m</sub>= 0 – 30%</b>	<b>№</b>	<b>2-guruh: R<sub>m</sub>=31%– 55%</b>	<b>№</b>	<b>3-guruh: R<sub>m</sub>= 56% – 100%</b>
<b>1.</b>	Savdo xizmatlari	1.	Axborot va aloqa xizmatlari	1.	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil ohasidagi xizmatlar
<b>2.</b>	Ta'lim sohasi xizmatlari	2.	Transport xizmatlari	2.	Moliyaviy xizmatlari
<b>3.</b>	Sog'liqni saqlash sohasi xizmatlari	3.	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3.	Ijara va lizing bo'yicha xizmatlar
<b>4.</b>	Kompyuter, shaxsiy foydalanish byumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar				

<sup>82</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu xizmat turlarining barchasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari investitsiyaviy loyihalar orqali o'z faoliyatini rivojlantirishni rejalashtiradi. Shunga ko'ra 1.3 badda keltirilgan 1.6-jadval va ishlab chiqilgan me'zonlar orqali xizmat ko'rsatish subyektlarining tadbirkorlik faoliyatida investitsiyaviy loyihalar riskini baholashda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalarini aniqlaymiz (ekspert baholash natijalari 1-ilovada keltirilgan). Baholash natijalarini umulashtirgan holda xizmat ko'rsatish turlarining riskka moyillik darajalari ( $R_m$ ) bo'yicha guruhlariga ajratamiz (3.13-jadval).

Investitsiya loyihalarini rejalashtirish va ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatish turlarining risklarga moyillik darajalarini guruhlash ko'rsatkichlaridan foydalanish loyihalarni baholash va amalga oshirish jarayonida moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

### **3.3-§. Xizmat ko'rsatish subyektlarida iqtisodiy risklarni baholash va prognozlash**

